

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

(O`QUV QO`LLANMA)

BUXORO – 2023

B.F. Azimov, K.Y. Norova, G.M. Qudratova. Iqtisodiy siyosatga kirish. (O`quv qo`llanma). T.: “ ”, 2023, 160 bet

«Iqtisodiy siyosatga kirish» fani bo'yicha tayyorlangan mazkur o`quv qo`llanmani tayyorlashda O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Yangi O`zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi” va oliy ta'limda kadrlar tayyorlashning malaka talablari inobatga olingan. O`quv qo`llanmada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlar, ma`ruzlari, mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar materiallaridan keng foydalanilgan.

O`quv qo`llanma o`zaro mantiqiy bog`langan “Iqtisodiy siyosatga kirish” fanining nazariy asoslari, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining o`rni, O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vositalari, ijtimoiy-iqtisodiy o`sishni dasturlash, prognozlash va rejalashtirish, iqtisodiyotda raqobatni qo`llab-quvvatlash, monopoliyalar va antimonopol siyosat, bozor iqtisodiyotida davlatning narx siyosati va inflyatsiyaga qarshi siyosati, pul-kredit siyosati vositalari, soliq-byudjet siyosati, davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati, mehnat munosabatlari, bandlik va aholi daromadlari sohasidagi siyosatlari, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash siyosati, tarkibiy-tuzilmaviy va investitsion siyosati, agrar sohani davlat tomonidan qo`llab - quvvatlash siyosati, davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosati va hududiy rivojlantirish istiqbollari, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartiblash va davlatning ekologiya sohasidagi siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartiblash siyosati kabi bir-biridan qiziqarli mavzularni yoritishga e`tibor qaratilgan.

O`quv qo`llanma iqtisodiy yo`nalishdagi bakalavriat talabalari uchun mo`ljallangan.

Taqrizchilar: A. J. Abdulloyev - BuxDU, “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, PhD, prof.
A. Ch. Boboyev - BuxMTI, “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.n., dots.

KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanmada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda zamonaviy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalarida foydalanib kelinayotgan tamoyillar, usullar, vositalar va dasturlarga bag'ishlangan nazariy va amaliy masalalar o`rin olgan. Hozirgi vaqtda iqtisodiyot fani iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning globallasuvi, ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi, hayotning ijtimoiy-tabiiy va atrof-muhit sharoitlariga talablarning kuchayishi kabi o`zgarishlar sababli bilimlarning yangi darajasiga ko'tarilmoqda. Shu munosabat bilan davlatning hozirgi zamon murakkab jarayonlarining asosiy muvofiqlashtiruvchisi va tartibga soluvchisi sifatidagi roliga bo`lgan qiziqishlar ham ortib bormoqda.

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari davlatning mohir islohotchilik salohiyatini hayotga tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori sur'atlariga erishmoqdalar.

O`quv qo'llanmada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar misolida zamonaviy nazariy asoslar bayon etilgan.

Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining o`rni imkon boricha kengroq oydinlashtirib berishga harakat qilingan. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida sog`lom raqobat muhitini yaratishda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish iqtisodiy siyosatining amalga oshirilish vositalari bayon qilingan. Ustivor milliy dasturlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlash, prognozlash va rejalashtirishning mamlakatimiz rivojlanishiga erishishga e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotda raqobatni qo`llab-quvvatlash, monopoliyalar va antimonopol siyosat, bozor iqtisodiyotida davlatning narx siyosati va inflyatsiyaga qarshi siyosati, pul-kredit siyosati vositalari, soliq-byudjet siyosati, davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati, mehnat munosabatlari, bandlik va aholi daromadlari sohasidagi siyosatlari, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash siyosati, tarkibiy-tuzilmaviy va investitsion siyosati, agrar sohani davlat tomonidan qo`llab - quvvatlash siyosati, davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosati va hududiy rivojlantirish istiqbollari, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini

tartiblash va davlatning ekologiya sohasidagi siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartiblash siyosatini amalga oshirish yo`nalishlari keltirib o`tilgan.

O`quv qo`llanma iqtisodiy yo`nalishdagi bakalavriat talabalari uchun mo`ljallangan. Shuningdek, qo'llanma materiallaridan iqtisodiyot masalalar bo'yicha tahsil olayotgan o`quvchi-talabalar va ushbu sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan magistr-doktorantlar foydalanishlari mumkin.

1-mavzu. "Iqtisodiy siyosatga kirish" fanining nazariy asoslari.

Reja:

- 1. Bozor mexanizmi: asosiy kamchiliklari va iqtisodiyotga davlat aralashuvining zaruriyati**
- 2. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari**
- 3. "Iqtisodiy siyosatga kirish" fanini o'rganishning ahamiyati**

Bozor mexanizmi: asosiy kamchiliklari va iqtisodiyotga davlat aralashuvining zaruriyati

Qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tartiblashning ikki mexanizmi keng tarqalgan: davlat aralashuvi va bozor mexanizmlari.

Bozor munosabatlari - insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan buyuk yutuqlardan biridir. Bozor iqtisodiyotining uzoq rivojlanish jarayoni tovar xo'jaligining dastlabki kurtaklaridan boshlab toki zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatining hozirgi shakllari, iqtisodiyot subyektlari orasidagi taraqqiy topgan iqtisodiy munosabatlarni, ne'matlarni ishlab chiqarishdan toki ularni iste'mol qilishgacha bo'lgan keng miqyosli davrani qamrab oladi.

Bozor - bu turli ne'matlarni yaratuvchi subyektlar faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi murakkab mexanizm bo'lib hisoblanadi. Bunda qiymat qonuni, talab qonuni, taklif qonuni, raqobat qonuni asosida ro'yobga chiquvchi ijtimoiy mehnat taqsimoti va markaziy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida xususiy mulkchilik ustunligi bozorning eng ko'p ustivor ahamiyatga ega bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida barcha tadbirkorlik faoliyatlarining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga va taraqqiyotga undovchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi.

Bozor tizimida ne'matlarni yaratuvchilar va ularning iste'molchilarining egiluvchan va moslashuvchan qaror qabul qilishlari va ular o'rtasidagi aloqalarni bog'lash uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari orasida resurslarni samarali taqsimlashda, talab va taklif muvozanatini ta'minlashda bozor mexanizmi eng ko'p qo'l keladi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, mehnatga yollash va bandlikni ta'minlash masalalarida, tashqi iqtisodiy aloqalarning oqilona tarkib topishida, iqtisodiyot tarkibiy-tuzilmaviy shakllanishida, daromadlar va milliy boylikni o'zlashtirishda va boshqa jarayonlarda bozor mexanizmi tartiblash nuqtai-nazaridan kam imkoniyatlarga ega ekanligi namoyon bo'lib bormoqda¹. Misol tariqasida, davlat mudofaa sanoati, pochta, telegraf, temir yo'llar, yerosti boyliklarini o'zlashtirish kabi yirik tarmoqlarni rivojlantirishni o'z zimmasiga olishga majbur. Bozor iqtisodiyoti uddasidan chiqq olmaydigan vazifalar ham mavjud.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, bozor munosabatlari sharoitida u yoki bu iqtisodiy jarayonlar davlat aralashuvini taqozo qiladi. Bular, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tashqi iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, raqobatni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimidagi islohotlarni izchil olib borish, mudofaa, ichki tartib-intizomni saqlash va sud-huquq tizimlarining ratsional ish faolligini ta'minlash, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarning oldini olish, iqtisodiy sikllar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatlarni taraqqiy ettirish, mamlakatda sanitar-epidemiologik barqarorlikni saqlab turish va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishda davlatning aralashuvi ahamiyatli bo'ladi². Bozor mexanizmiga xos bo'lgan quyida keltiriladigan asosiy kamchiliklarining salbiy oqibatlarini yumshatishga xizmat qilganligi uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to'la o'zini oqlaydi:

- yuqori iqtisodiy erkinlik darajasida butun tizimning beqarorligi va inflyatsiya va ishsizlik kabi inqirozli hodisalarning kelib chiqish ehtimoli oshadi;

- tanlov erkinligiga qaramay, bozor ishtirokchilari yangi tovar yoki xizmatlar ishlab chiqarish, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan til biriktirish orqali monopoliya yaratish imkoniyatiga ega bo'lishadi;

¹ Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учеб. пособие. / А. В. Владимирова, Н. И. Вильдяева, Е. А. Куделя, С. А. Лосевская - 2-е изд., испр. и доп. – Новочеркасск: 2015. – 83 с.

² В.У. Ходиев, Ш.Ш. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 642 bet

- erkin narx belgilash va taklifning mavjud talabga bog'liqligi sharoitida ko'plab arzon, ammo ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilmaydi yoki yetarli miqdorda ishlab chiqarilmaydi;

- bozor modeli daromadlarning va aholi qatlamlarining tabaqalanishini keltirib chiqarishi mumkin;

- ishlab chiqarish uchun mavjud bo'lgan barcha resurslardan foydalanishga ruxsat berib, bozor iqtisodiyoti ularning xavfsizligini nazorat qilmaydi va ularning kamayishiga sharoit yaratadi va hokazo³.

Keltirilgan fikrlar mamlakat Ijtimoiy-iqtisodiy o`rinishida bozor mexanizmi kabi davlat mexanizmining teng ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy siyosat to'g'ri tashkil etilsa iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda davlat va bozor mexanizmlaridagi ustun jihatlardan to'liq foydalanishga erishiladi.

Davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish, mavjud tuzumni mustahkamlash va takomillashtirish, o'zgarib borayotgan sharoitga adaptatsiya qilish, moslashish hisoblanadi. Demak, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash mamlakatlar iqtisodiy tizimlarning asosiy belgisi hisoblanadi. Shuning uchun dunyoning aksariyat mamlakatlarida, jumladan, rivojlangan mamlakatlar tajribasuda ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kuchayib bormoqda. Iqtisodiy jarayonlar, munosabatlar, shart-sharoitlar bozor mexanizmiga xos kamchiliklar tufayli optimal tashkil etilmasligi bilan muammoni davlat aralashuvi orqali hal etishga harakat qilinadi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari

Zamonaviy shart-sharoitlarda davlat mexanizmining iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda, ijobiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda yagona tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi roli tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyotining eng afzal jihatlari rag'batlantirish va uning ayrim kamchiliklarini


³ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 8 bet

bartaraf etish yoʻlida davlatning asosiy iqtisodiy maqsadlariga quyidagilar kirishi kerak:


1. Bozor mexanizmining amal qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
2. Iqtisodiy va va albatta ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash;
3. Iqtisodiy taraqqiyotning barqaror darajasini saqlab turish;
4. Iqtisodiyotni tarkibiy-tuzilmaviy jihatdan oqionalashtirish;
5. Ijtimoiy-demografik muammolarni bartaraf etish va Ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirish;
6. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartiblash va atrof-muhitni muhofaza qilishda bosh rolni bajarish.⁴

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy siyosat maqsad va vazifalarini ado etishda davlat maʼlum usullar va vositalardan foydalanadi. Iqtisodiy siyosatni roʻyobga chiqarish usullarini funksional belgisiga koʻra, shartli bevosita usullar va bilvosita usullarga, tashkiliy-institutsional belgisiga koʻra maʼmuriy, institutsional va iqtisodiy usullarga boʻlinadi.

⁴ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.



Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning bevosita usullari davlat hokimiyatining kuchli imkoniyatlariga asoslanadi va moliyaviy zarar xavfi yoki qo'shimcha moddiy rag'batlantirishning paydo bo'lishi bilan bog'liq emas



Barcha davlatlarning iqtisodiyotni tartiblash turi ma'muriy-buyruqbozlik monopoliyasi va sof erkin bozor elementlari qaysidir darajada qorishgan aralash modellariga mansub bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, funksional belgisi bo'yicha davlat tomonidan tartiblash usullari bevosita va bilvosita usullarga ajratiladi. Bevosita usullarga davlat subsidiyalari, davlatning tadbirkorligi, iqtisodiyotni davlat tomonida boshqarish tizimi kabilar kiradi. Bilvosita usullarga soliqlar, jarimalar, kvotalar, bojxona boji va boshqalar

kiradi.

“Iqtisodiy siyosatga kirish” fanini o‘rganishning ahamiyati

Yuqorida aytib o‘tilganidek, mamlakat oldida turgan uzoq va qisqa muddatli maqsadlarning xususiyatlaridan kelib chiqib davlatlar yoki bozor unsurlari ustunbo‘lgan, yoki ma‘muriy-buyruqbozlik unsurlari ko‘proq rivojlantirilgan aralash iqtisodiy siyosatni olib boriladi. “Iqtisodiy siyosatga kirish” fanining maqsadi – bozor iqtisodiyotining katta katta afzalliklarini ro‘yobga chiqarish va ayrim kamchiliklarini bartaraf etish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini oqilona tashkil etishning eng muhim xususiyatlarini oydinlashtirishdan iborat.

“Iqtisodiy siyosatga kirish” fanining vazifasi iqtisodiyotni tartiblashda bozor munosabatlari bilan davlat mexanizmi elementlarining uyg‘unligini ta‘minlash yo‘nalishlari va shart-sharoitlarini tahlil etish, iqtisodiyotni tartiblashda davlat aralashuvi haqidagi kontseptsiyalarni solishtirishdir.

Tayanch iboralar:

bozor mexanizmi, bozor mexanizmining kamchiliklar, davlatning iqtisodiyotdagi vazifalari, iqtisodiy siyosatni yuritishning asosiy usullari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash maqsadlari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyoti nima?
2. Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan asosiy kamchiliklarni sanang
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning qanday vazifalarini bilasiz?
4. Iqtisodiy siyosatni yuritishning qanday usullari bor?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash maqsadlari qanday?

2-mavzu. Iqtisodiy siyosat nazariy asoslarining shakllanishi

Reja:

- 1. Merkantilizm va fiziokratik iqtisodiy maktab**
- 2. Iqtisodiy siyosatning klassik va neoklassik nazariyalari**
- 3. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining keynschilik nazariyasi**
- 4. Iqtisodiyotni tartiblashda monetarizm nazariyasi**

Merkantilizm va fiziokratik iqtisodiy maktab

Bozor mexanizmi uzoq yillar davomida iqtisodiy voqea-hodisalarning yagona manbai bo'ldi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan taribga solish nazariyalari birmuncha keyinroq, ya'ni kapitalizmning boshlang'ich pallalaridan boshlab dunyo yuzini ko'rdi. Dastlabki iqtisodiy nazariyalar sifatida merkantilizm va fiziokratizmni olish mumkin. Merkantilizm nazariyasi tarafdorlari barcha boylik savdoda yaratiladi, mamlakat boyligi esa, faqat pul bilan (o'sha vaqtda oltinlar) o'lchanadi, degan fikrni ilgari surishgan.

Merkantilizm nazariyasining paydo bo'lishi dunyoda kapitalni dastlabki jamg'arish davrlariga mos keladi. Ushbu nazariyaning asosiy qarashlari ikkita fikrda o'z aksini topgan: 1) mamlakat badavlatligi pul bilan, yanayam aniqroq qilib aytilsa oltin miqdori bilan ifodalanadi, 2) davlat hukumat ta'sirida katta pul miqdorlarini to'plashga erishishi mumkin. Merkantilistlar mamlakatga olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlar o'rtasida ijobiy farqni saqlab turish yo'li bilan davlat boyligini oshirish mumkinligini, shu tufayli chegaralardan tashqariga tovarlarni chiqarishni rag'batlantirish va teskari hodisa chegaralardan tovarlar kirib kelishini cheklash zarurligini ko'rsatib o'tishadi. Chet ellardan arzon tovarlarni olib kirish va xorijga qimmatroqqa sotish tamoyili orqali davlatning aralashuvi orqali proteksionizm siyosatini olib borish kerakligini tavsiya etdilar. Shunisi diqqatga sazovorki, merkantilizm tarafdorlari (masalan, fransuz A.Monkretton) "siyosiy iqtisod" atamasini amaliyotga kiritishdi, shuningdek, birinchilardan bo'lib boylik bu tovarlarning iste'mol qiymati emas, balki ularing

almashinuv qiymati ekanligini e'lon qildilar.

Fiziokratlar (eng ko'zga ko'ringan namoyondasi - F.Kene) savdo sohasini taxlil qilishdan ishlab chiqarishni, yanayam aniqroq qilib aytganda qishloq xo'jaligini taxlil qilishga urg'u berishdi. Ushbu iqtisodiy maktab tarafdorlaridan F.Kene savdo faoliyati hech qanday boylik olib kelmasligini, ayirboshlashda biror narsa ishlab chiqarilmasligi masalasini ilgari surdi. Fiziokratlar iqtisodiy taraqqiyotga tabiiy jarayonlar sabab bo'lishini, tabiiy jarayonlar esa, alohida olingan kishilar ta'siridan holi bo'lishini, davlat esa, qonunlarga amal qilinishini ta'minlashi kerakligini keltirib o'tishdi.⁵

Iqtisodiy siyosatning klassik va neoklassik nazariyalari

Bozor munosabatlarining rivojlanishi keng miqyosda tadbirkorlar sinfini paydo bo'lishi va jamiyatda mustahkam o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Klassik iqtisodiyot maktabi vakillari iqtisodiy taraqqiyotga merkantilistlar aytgani kabi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi sharoitida emas, balki iqtisodiyotning davlatdan xoli bo'lgandagi sharoitida erishilishi mumkinligini isbotlashga harakat qilishdi. Klassik siyosiy iqtisod maktabi tarafdorlari (masalan, A.Smit, D.Rikardo) o'z ilmiy asarlarida qiymatning mehnat nazariyasini yaratishdi, kapitalning mazmun-mohiyatini va qo'shilgan qiymat nazariyasini ochib berishdi. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qoralab bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi boshqara olishiga ishontirishadi, masalan, A. Smit bozor ishtirokchilari tobora ko'proq foyda olishni ko'zlab jamiyat manfaatlariga ham xizmat qilishi g'oyasini ilgari surgan ("ko'rinmas qo'l").

A.Smit g'oyasining davomchilari bo'lmish D. Rikardo, J. B. Sey, A. Marshal kabilar iqtisodiy liberalizm 'goyasini qo'llab-quvvatlashdi va hozirga qadar neoklassik yo'nalish sifatida ijobiy baholanib kelinadi.

Klassiklar yalpi talab-yalpi taklifning o'zaro muvozanatiga baho berishda yalpi

⁵ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

taklifning ijobiy miqdorlarda o‘zgarishi o‘z orqasidan yalpi talabni ham oshiradi, degan fikrda turishdi⁶. J.B. Sey qonunida aks etishicha, tovar taklif etishning o‘shishi ish haqining o‘shishiga, ish haqining o‘shishi esa, o‘z navbatida talabni yuzaga keltiradi va yalpi taklif-yalpi talab muvozanatiga erishiladi. Klassik maktab tarafdorlari ish haqi ko‘rinishidagi daromadlarning barchasi ham talabga aylanmasligini ko‘zdan qochirishgan edi. Shuningdek, klassik maktab tarafdorlari o‘z g‘oyalarining iqtisodiy inqirozlar shart-sharoitlarida to‘laqonli ishlamasligini oldindan aytib bera olishmadi.

Neoklassiklar bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat mulkini xususiylashtirish, davlatning iqtisodiyotni tartiblashni cheklashni talab qiladilar. Ammo klassik nazariyaning zamonaviy davomchilari umuman iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashni butunlay inkor etmaydilar.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining keynschilik nazariyasi

1929-1934 yillarda yuz bergan inqiroz klassik maktab tomonidan ilgari surilgan erkin bozor mexanizmining o‘zi iqtisodiyotni tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi yagona mexanizm, degan g‘oyani inkor qildi. “Buyuk depressiya” deb nom olgan iqtisodiy inqiroz yalpi ishlab chiqarish hajmining qariyb yarmigacha pasayib ketishini va ishsizlikning keskin oshib ketishini, narxlar o‘shishining misli ko‘rilmagan darajalarini namoyon qildi. Ana shunday tarixiy shart-sharoit yangi – davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yoqlovchi iqtisodiy nazariyaning kelib chiqishiga zamin yaratdi.

Ingliz iqtisodchisi J.M.Keyns (1883-1946) tartiblashning bozor mexanizmi bilan yonma-yon holda iqtisodiyotga davlatning aralashuvisiz barqaror iqtisodiy o‘shishga erishib bo‘lmasligini ko‘rsatib berdi. Keyns ayni bo‘hronli inqiroz sharoitida iqtisodiyotni xalokatli larzalardan saqlab qolish uchun iqtisodiy liberalizm g‘oyalari yetarli emasligini isbotlab berdi.

Keynsning iqtisodiy modeli «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida davlat tomonidan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti tushinchasi bilan o‘z aksini

⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 566 bet

topdi.

Keyns J.B.Sey tomonidan ilgari surilgan yalpi taklif yalpi talabni yuzaga keltiradi, degan fikrni butunlay rad etdi, aksincha yalpi talabni rag'batlantirish o'z orqasidan yalpi taklifni hosil qilib berishini isbotladi. Yalpi talabni pul-kredit va soliq-budjet mexanizmlari orqali davlat tomonidan tartiblash - Keyns 'goyasining asosi edi.

Keynsdan oldin va u yashab o'tgan davrlarda iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish zarurligini ilmiy asoslab bergan olimlar bo'lgan. Masalan, A. Pigu va K.Viksell, G. Xaberler o'zlarining iqtisodiy sikllar nazariyasida iqtisodiy tushkunliklarni kapitalning ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan jamg'arilishi keltirib chiqarishini aytib o'tishgan. Davlat esa, siklik o'zgarishlar salbiy oqibatlarini yumshatishda davlatning roolidan foydalanish kerakligini bayon qilishgan. Ammo aynan Keyns nazariyasi boshqa o'xshash nazariyalardan farqli tomoni sifatida inqirozlarning tasodifiy emas, balki iqtisodiy liberalizm oqibatlari ekanligidan ogohlantirgan, iqtisodiyotni davlat tomonidan doimiy ravishda turli vositalar yordamida tartibga solib turish zarurligini birinchi bo'lib isbotlab berdi.

Yuqoridagi g'oyalarga sadoqati tufayli neokeynschilar ham yetishib chiqdilar, ular soliqlar, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi, davlat qarzi kabilar iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning asosiy dastaklari, deb hisoblaydilar⁷. Ta'kidlanishicha, iqtisodiy o'sish sharoitida aholi daromadlari oshgan sayin soliq tushumlari ham oshib boradi. Bu hodisa o'z navbatida ortiqcha talab hamda ortiqcha tovar taklifining paydo bo'lishining oldini oladi. Ishsizlik darajasining oshib borishi asnosida inqirozning boshlanishi davlat xazinasidan ishsizlik nafaqalarining yanada ko'payishiga olib keladi va o'z navbatida to'lovga qobil talabning kamayishiga qarshilik qiladi. Shu sababli neokeynschilar tomonidan moliyaviy kompensatsiya o'rnini qoplash siyosati va budjet taqchilligi bilan parallel moliyaviy ta'minlash g'oyalari ilgari surilmoqda.

Iqtisodiyotni tartiblashda monetarizm nazariyasi

Iqtisodiyotni boshqarishga monetar qarashlar garchi 1929-1934 yillardagi

⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 477 bet

iqtisodiy inqiroz davrigacha ham uchragan bo'lsa-da, ammo ko'proq 20 asrning ikkinchi yarmidan yuzaga kelgan va amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tadqiqotlaridan boshlab takomillashtirib borilmoqda. Hatto ayrim hollarda monetaristik qarashlar 1929-1934 yillardagi iqtisodiy inqiroz omillaridan biri bo'ldi, degan qarashlar mavjud.

Monetarizm vakillari pulni xo'jalik yuritishning muhim qismi, pul-kredit siyosati esa iqtisodiyotni tartiblashning eng yaxshi dastagi, deb qabul qildilar. M. Fridman Keyns modelidan kelib chiqqan, ammo ushbu nazariyaga muqobil bo'lgan yangicha nazariya yaratish maqsadini o'z oldiga qo'ydi, pulning miqdor nazariyasiga o'zgacha ta'rif berdi va inflyatsiyani sof monetar muammo sifatida qarab chiqdi.

Monetar nazariya monetar siyosatni, ya'ni davlatning pul-kredit sohasida boshqaruvchilik tadbirlari majmuini amalga oshirishni ko'zda tutar edi. Ko'zga ko'ringan namoyondalardan biri I.Fisher Ayirboshlash tenglamasi deb nomlangan monetarizmning eng asosiy tenglamalaridan birini taqdim qildi:

$$M \times V = P \times Q$$

bu yerda: M – aylanmadagi pulning massasi;

V – pul massasining aylanish tezligi;

P – tovar va xizmatlarning narxlari darajasi;

Q - tovar va xizmatlarning miqdori.

Iqtisodiyotni tartiblashning monetarizm nazariyasida bozor mexanizmi kamchiliklarini to'g'rilash shart emas, balki uning oqilona ishlashi uchun barqaror moliyaviy shart-sharoitlarni ta'minlash ko'proq ahamiyatga ega vazifadir. Shu ma'noda pul birligining xarid qobiliyati va valyuta kursining barqarorligi monetarizm nazariyasi uchun muhim jihatlardir. Shuning uchun monetarizm nazariyasi tarafdorlari soliq-budjet siyosatining ishlab chiqarish omillarini qayta taqsimlovchilik va barqarorlashtiruvchilik roliga kamroq e'tibor qaratadilar.

Tayanch iboralar:

iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda merkantilizm va fiziokratik iqtisodiy maktabi, klassik va neoklassik nazariyalar, iqtisodiyotga davlat aralashuvining keynschilik nazariyasi, monetarizm nazariyasi

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda qanday nazariy iqtisodiy maktab va nazariyalarni bilasiz?
2. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda merkantilizm iqtisodiy maktabining asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda fiziokratik iqtisodiy maktabining qo'shgan hissalarini nimalardan iborat?
4. Iqtisodiyotni tartiblashda klassik va neoklassik nazariyalar to'g'risida nimalar bilasiz?
5. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining keynschilik nazariyasi haqida fikr bildiring
6. Sizningcha Monetarizm nazariyasining bozor iqtisodiyotini tartiblash bo'yicha asosiy g'oyalarni muvafaqqiyatli amalga oshirish mumkinmi?

3-mavzu. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining o'rnini

Reja:

1. **Bozor iqtisodiyotini tartiblash bo'yicha davlat boshqaruv organlarining vazifalari.**
2. **Bozor iqtisodiyotini tartiblash dastaklari.**
3. **“Taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturining maqsad va yo'nalishlari.**

Bozor iqtisodiyotini tartiblash bo'yicha davlat boshqaruv organlarining vazifalari.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash usullarini qo'llashda, unga mos ravishda iqtisodiyotning u yoki bu tomonlarini tartiblash vositalaridan keng foydalanadi.

Davlat sektori - bu mol-mulk egasi davlat bo'lgan barcha korxonalar va tashkilotlar to'plamidir. Uning birinchi qismi milliy lashtirishdan va ikkinchi qismi esa davlat moliyaviy resurslari hisobidan shakllantiriladi. Yuqori kapitallab yangi tarmoqlarni yaratish (kosmik ishlab chiqarish va boshqalar) hisobiga iqtisodiyotda davlat sektori ulushi oshib boradi.

Mamlakatlarning ijtimoiy ishlab chiqarishida davlat sektorining salmog'i turlicha bo'lib, asosiy kapitalning 2 foizidan toki 50 foizigachasini tashkil etadi. MDH davlatlarida bozor islohotlaridan so'ng davlat sektori ulushi sezilarli darajada qisqarganligiga misollar ko'pdir.

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda davlat sektori va davlat budjeti resurslari yig'ilib «xo'jalikning ijtimoiy sektori, deb nomlanadi. Shuning uchun, ijtimoiy sektor komponentlari orasida davlat budjeti hamda davlat moliyasi asosiy o'rinni egallaydi. YalM ga nisbatan davlat daromadlarining ulushi masalan, Meksikada - 21,4 foiz va Turkiyada - 27,3 foizdan Daniya va Shvetsiyada - 60,4 foizgacha yetadi. Ijtimoiy xarajatlar darajasining o'sishiga qarab davlat xarajatlari ulushi ham ortib boradi. O'zbekistonda davlat ijtimoiy sohaga xarajatlarining YalMdagi ulushi 2012-yilda 16,4 % ni tashkil etgan edi.

Ishlab chiqarish maqsadlariga ko'ra davlat va nodavlat sektorlari farqlanadi. Nodavlat sektorida ishlab chiqarishning tijorat maqsadlari bo'ladi, ammo davlat sektoridagi asosiy maqsad — bu investitsiyalarni ko'paytirish, bandlikni tartiblash, nodavlat sektoriga ko'mak berish va ijtimoiy jarayonlarni tartiblash bo'lib hisoblanadi. Davlat sektorining asl maqsadlari milliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vazifalarini amalga oshirish uchun soliqlar va yig'imlar jalb qilish yo'li bilan davlat xazinasini manbalari tashkil qilinadi va davlat sektorining moliyaviy bazasi shakllantiriladi.

Davlat tomonidan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning yuqorida keltirilgan umumiy vazifalardan tashqari davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan ayrim vazifalar ham mavjud:

- iqtisodiy o‘shish va iqtisodiy rivojlanish;
- to‘liq va samarali bandlik;
- iqtisodiy samaradorlikka erishishni ko‘zlash;
- narxning barqaror darajasi;
- iqtisodiy erkinlik;
- daromadlar taqsimlanishining tengligi;
- mamlakat tashqi savdo balansi proporsionalligi.

Rivojlanishning alohida bosqichlarida o‘zaro bog‘langan maqsadlarni ishlab chiqish va asoslash davlat hokimiyatining mamlakatni boshqarishdagi uddaburonligidan dalolat beradi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlarining murakkabligi, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchanligi va qarama-qarshiliklari, ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi davlat boshqaruv idoralarining tor doiradagi o‘z maqsadlarini emas, balki yaxlit o‘zaro bog‘liqlik maqsadlarni ishlab chiqishga majbur qiladi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga mas’ul davlat organlari oldida maqsadlar ko‘p, ulaming ichida eng muhimlari quyidagilardir:

- Ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta'minlash;
- mehnatga layoqati bo‘lgan aholining bandligini ta'minlash;
- barqaror narxlarni hamda pul muomalasining barqarorligini o‘rnatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mutanosiblikni ta’minlash.²

Davlat ta’sir etadigan va tartiblaydigan obyektlarga ularning darajalari nuqtayi nazaridan quyidagilar kiradi:

-mumxo‘jalik jarayonlari, ya'ni iqtisodiy sikl, pul muomalasi, ish bilan bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), narxlar;

- iqtisodiyotning yirik sohalari, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, infrastrukturalar, moliya sohasi;
- tarmoqlar va korporatsiyalar;
- yirik xo'jalik komplekslari sifatidagi hududlar.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, davlat tashqi savdo sharoitlarni, kapital va mehnat migratsiyasini, valuta munosabatlarini, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish holatini tartibga soladi. Davlatning iqtisodiy siyosati obyektiga ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar, mikro va kichik biznes, shuningdek, ijtimoiy ta'minot sohalari ham kiradi.

Bozor tizimiga o'tishga doir chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish respublikaning Ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi, uning sanoatlashgan mamlakatlar safiga qo'shilishida chuqur sifat o'zgarishlariga olib keladi hamda O'zbekiston iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mustaqilligining ishonchli kafolatini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyotini tartiblash dastaklari.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash iqtisodiy siyosat bilan bevosita bog'liq, ya'ni uni amalga oshirishga qaratilgan. Davlat iqtisodiy siyosatning maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash vositalarining turli shakl va usullaridan foydalanadi.

Davlat iqtisodiyotga bevosita (ya'ni ma'muriy) va bilvosita (ya'ni iqtisodiy) ta'sir qilish usullaridan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita (ya'ni ma'muriy) vositalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular:

- ularni amalga oshirish uchun qo'shimcha moddiy rag'batlantirishni yaratish bilan bog'liq emas;
- davlat hokimiyatining kuchi va vakolatiga asoslangan;
- ta'qiqlash, ruxsat berish va majburlash choralarini o'z ichiga oladi: Taqiqlash - har qanday faoliyatni taqiqlash, har qanday tovar va xizmatlar yoki uning texnologiyalarini

ishlab chiqarishni ijtimoiy zararli deb e'tirof etish. Ruxsat - bu boshqaruv sub'ekti tomonidan yozma yoki og'zaki shaklda berilgan rozilikdir. Davlat iqtisodiy faoliyatning ko'plab turlarini amalga oshirishga, bir qator tovarlarni eksport va import qilishga ruxsat beradi. Majburlash belgilangan normalarni buzganlik uchun jazo choralarini qo'llashga asoslanadi. Masalan, soliqlar o'z vaqtida to'lanmаса, jarima undiriladi.

- iqtisodiyotning davlat sektoridagi korxonalarni, davlat tasarrufidagi mulkni boshqarishni tashkil etishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilishning bilvosita (ya'ni iqtisodiy) vositalari quyidagi tartiblash vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi:

- davlat iqtisodiy prognozi;
- davlat iqtisodiy dasturlash;
- byudjet-soliq tizimi;
- pul-kredit siyosati;
- bojxona siyosati.

“Taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturining maqsad va yo'nalishlari

2021 yil 6 noyabrda Prezident SH.M. Mirziyoev kelajakdagi besh yilda kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarni e'lon qildi. Ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi.⁸ **Birinchi yo'nalish** erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga bag'ishlangan va bu yo'nalishda kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o'tkazilishi, har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etilishi, tuman byudjeti qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallaning alohida jamg'armasi shakllantirilishi, markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratilishi, bir xil yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtirilishi belgilangan.⁹ **Ikkinchi yo'nalish** adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

ta'minlash vazifalarini qamrab olgan. Ushbu yo'nalish doirasida sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtirilishi, tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytirilishi, korrupsiyaga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalari safarbar etilishi, aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, korrupsiyaning sabablarini oldindan bartaraf etish choralari ko'rilishi ko'zda tutilgan. ¹⁰ **Uchinchi yo'nalishda** milliy iqtisodiyotni rivojlantirish rejalari keltirilgan va 2030 yilga borib, jon boshiga aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsadi qo'yilgan. Ushbu maqsad va vazifalarga erishishda xususiy sektorni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish evaziga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'li bilan inflyatsiya darajasini 5 foizgacha pasaytirish, aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo'yicha ham yirik loyihalar amalga oshirish evaziga erishilishi keltiriladi. ¹¹ **To'rtinchi yo'nalishda** sifatli ta'lim-tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lishi ta'kidlandi. Ushbu yo'nalish doirasida o'qituvchilarning oylik maoshini izchil oshirib borish va 2025 yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish, yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Aholi salomatligini saqlash uchun barcha sharoit yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentiga yetkazish va viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lami kengaytirilishi mo'ljallangan. Davlat tibbiy sug'urta tizimi ishga tushirilib, mablag' aniq bemorga bog'langan holda ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo'lib

¹⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

qoladi.¹² **Beshinchi yo‘nalishga** asosan ma’naviy va ma’rifiy sohalar rivojlantirilishi mo‘ljallangan. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustavor ahamiyat qaratiladi.¹³ **Oltinchi yo‘nalish doirasida** global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlandi. Xususan, ekologik tahdidlarning salbiy ta’siri ortib borayotgani qayd etildi. Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish, Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish masalalariga to‘xtalib o‘tildi.¹⁴ **Yettinchi yo‘nalishda** mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar o‘z ifodasini topgan. Qurolli Kuchlarning qudrati yanada oshirilishi, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi kuchaytirilishi nazarda tutilgan. Xalqaro hamkorlikda pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat, iqtisodiy diplomatiya davom ettirilishi, avvalo, qo‘shni mamlakatlar va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklar bilan o‘zaro manfaatli va ko‘pqirrali aloqalar kengaytiriladi.¹⁵

Tayanch iboralar:

bozor iqtisodiyotida davlat sektori, iqtisodiyotni tartiblashda davlat boshqaruv organlarining maqsad va vazifalari, bozor iqtisodiyotini tartiblash vositalari, “Taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturi

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotida davlat sektorining qanday ahamiyati bor?
2. Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushinasiz?

¹² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹³ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3. Iqtisodiyotni tartiblashda davlat boshqaruv organlari qanday vazifalarni bajarishi kerak deb o‘ylaysiz?
4. Bozor iqtisodiyotini tartiblash vositalaridan qaysilarini bilasiz?
5. “Taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturining asosiy yo‘nalishlari va vazifalarini ajratib ko‘rsating.

4-mavzu. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida

- 1. Davlat mulki va davlat tadbirkorligi**
- 2. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning bosqichlari**
- 3. Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichi xususiyatlari**

Davlat mulki va davlat tadbirkorligi

Iqtisodiyotni boshqarishning eng muhim davlat vositalaridan biri bu davlat tasarrufida bo‘lgan sohalar va korxonalarni boshqarish hisoblanadi, ya’ni davlat bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan o‘zi shug‘ullanadi.

Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismidan foydalanib mulk egasi sifatida ishlab chiqarishni tashkil qilishi mumkin. Davlat tadbirkorlikni rivojlantirish vositasida fan va texnika taraqqiyoti talablariga mos keladigan milliy iqtisodiyot tuzilishini shakllantirishga, turli sektorlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Davlat mulki va davlat tadbirkorligi miqyosi bozor iqtisodiyoti rivojlangan sharoitida ancha cheklangan bo‘ladi. Davlat mulki va davlat tadbirkorligining asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishdir.

Uning doirasiga O‘zbekistonda, birinchi navbatda, yerosti boyliklarni qazib olish sanoati tarmoqlari; energetika, temir yo‘llari, avtomobil yo‘llari, transport va logistikaning bir qismi kiritilishi lozim.

Qazib chiqaruvchi sanoat tarmoqlar mahsulotlari eng muhim milliy boylik hisoblanadi.

Energetika va transport sohalari esa xalq xo'jaligining hayotiy qon tomirlari hisoblanadi. Shu bilan birga, bu sohalarning ko'p kapitallab bo'lganligi va o'zini-o'zi qoplash muddati ancha uzoq bo'lganligi uchun nodavlat sektoridagi korxonalarining bu sohalarga qiziqishi va tashabbuskorligi ancha past bo'ladi. Shunga o'xshash sabablar tufayli keltirilgan tarmoqlarni davlat o'z tasarrufida saqlagan holda boshqarishi birmuncha maqsadga muvofiqdir. Boshqa rivojlangan davlatlarda ham davlat kapital mablag'larining anchagina qismini ushbu sohalarga yo'naltirish tajribalari ko'p uchraydi.

Ikkinchidan, davlat iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun mashinasozlik, xususan, avtomobilsozlik, asbobsozlik, elektrotexnika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishi zarur bo'lib hisoblanadi. Bular kabi yangi tarmoqlar qaror topishi davlat tadbirkorligi doirasida sodir bo'ladi.

Uchinchidan, fan-texnika inqilobi sharoitida ilmiy tadqiqot va innovatsion siyochatni olib yuritish ham davlat zimmasidadir. Davlat eng qimmatli fundamental tadqiqotlar doirasidagi ilmiy ishlarni moliyalashtiradi.

Davlat korxonalarining mahsulotlari narxining pastligi bilan ajralib turadi, aksariyat hollarda ishlab chiqarish tannarxiga yaqin va hattoki, undan ham past narxlar (masalan, O'zbekistonda energiyaning ko'p turlari) taklif etiladi. Bunday choralar aholi turmush darajasining oshishiga va davlatdan tashqari sektorlardagi korxonalarining samarali ishlashlariga, iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasining ijobiy nisbatlarda shakllanishga rag'batlantiradi.

Davlat o'ziga qarashli mulklarni (shu jumladan, korxonalarni) ijaraga berishi, mehnat jamoalariga, xususiy shaxslarga sotib yuborishi, aksionerlik jamiyatlariga aylantirishi natijasida nodavlat mulkidagi korxonalar va tashkilotlarning paydo bo'lishiga, boshqa mulkdorlarning tashabbuskorligiga, ularning iqtisodiy samaradorligiga sababchi bo'lishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning bosqichlari

O‘zbekistonda mustaqillikka erishgan vaqtda sobiq Sovet Ittifoqidan bir tomonlama rivojlangan, qariyb to‘liq davlat mulki monopoliyasiga ega bo‘lgan iqtisodiyotni meros qilib oldi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lini tanlagan yosh respublika oldida xususiy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirish uchun eng asosiy to‘siqlardan biri mulkiy xilma-xillikni va erkinlikni ta’minlash edi. Respublikamizda davlat tasarrufidan mulkni chiqarish va xususiylashtirish jarayonida ikki eng ustivor strategik maqsadga yetish talab etilardi¹⁶.

Birinchi, davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan mulkni haqiqiy mulkdorlar qo‘liga topshirish va bu chora bilan mulkchilik munosabatlarini va iqtisodiy munosabatlarni tubdan modernizatsiya qilish uchun sharoit yaratish;

Ikkinchi, iqtisodiyotda ko‘p ukladlilikni va raqobatga asoslangan sog‘lom muhitni shakllantirish, shu bilan davlatning mulkiy monopoliyasiga barham berish, xususiy mulkchilikning ustivorligini ta’minlash.

Yuqorida keltirilgan ikkita ustivor maqsadga yetish uchun amalga amalga oshirilgan davlat tasarrufidan mulkni chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari shartli uch bosqichni qamrab oladi:

Birinchi bosqich “kichik xususiylashtirish” deb nomlanib, 1992-1993 yillarni qamrab oldi. Ushbu bosqichda aholi istiqomat qilayotgan va davlatga tegishli bo‘lgan uy-joy fondi, maishiy xizmat, savdo korxonalarini, dorixonalar va shunga o‘xshash davlatning kichik mulkiy ob’ektlari xususiy mulklarga o‘tkazildi. Birinchi bosqichning o‘ziga xos xususiyati shunda edi-ki, avvalambor, ushbu davlat korxonalarida faoliyat ko‘rsatib turgan ishlovchilarga birinchi navbatda taklif etildi, ikkinchi, davlat mulkidagi korxonalarni xususiylashtirish shakllarini tanlash va xususiylashtirilishi ko‘zda tutilgan mulkiy ob’ektni baholashning dastlabki tajribalari to‘plandi.

Ikkinchi bosqich „ommaviy xususiylashtirish“, deb nom oldi va taxminan 1994-1998 yillarni qamrab oldi. Bu davrda yengil va oziq-ovqat, mashinasozlik sanoatlari, qurilish,

¹⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 101 bet

avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa soha va tarmoqlarning oʻrta va yirik korxonalari ochiq hisadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan birga shakllantirilgan fond bozorlarini, koʻchmas mulk bozorlariga aholining keng qatlamlarini hamda chet el sarmoyadorlarini jalb etish, mamlakatda iqtisodiyotning davlatdan tashqari sektorni sezilarli rivojlantirish maqsadi ham koʻzlandi.

Xususiylashtirishning uchinchi bosqichida ommaviy xususiylashtirish amaliyotining oʻrniga “yakka tartibdagi xususiylashtirish” keldi va 1999 yildan hozirga qadar davom etmoqda. Davlat tasarrufidan mulkni chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichi avvalgi bosqichlardan farq qilib, birinchidan, iqtisodiyotning yoqilgʻi-energetika majmuasi, metallurgiya va kimyo sanoatlari, temir yoʻllar transporti va boshqa strategik sanalgan tarmoqlardagi yirik sanoat korxonalarini xorijiy investitsiyalarni jalb etish yoʻli bilan yakka-yakka loyihalar asosida xususiylashtirish, ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan va keyinchalik ular negizida tashkil etilgan yangi ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining hali joylashtirilmagan, jumladan, davlatga tegishli aksiyalar nazorat paketlari va ayrim korxonalar mulkini butunlay yoki bir qismini fond birjalari yoki birjalardan tashqari bozorlarda turli usullar va yondashuvlar asosida sotishni amalga oshirish, uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar koʻrib ishlovchi hamda kelajagi yoʻq korxonalar va ular mulkidagi davlat hissalarini nol qiymat bilan milliy yoki xorijiy investorlariga tegishli miqdorga investitsiya kiritish sharti bilan bepul berish tartiblari joriy etilishi va amalga oshirilishi alohida ajralib turadi.

Oʻzbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va mulkni xususiylashtirish sohasidagi meʼyoriy-huquqiy taʼminotini shakllantirish boʻyicha olib borilgan islohotlarni quyidagi shartli 8 bosqichini ajratib koʻrsatish mumkin¹⁷:

1. Oʻzbekiston Respublikasi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish toʻgʻrisida» Qonuni (19 noyabr 1991 yil, 425-XIIson) hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 10 fevraldagi PF-337-son “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish komiteti (Davlat mulki komiteti)ni tashkil qilish

¹⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 101 bet

to'g'risida"gi Farmoniga asosan respublika hududida bozor munosabatlarini shakllantirish, tadbirkorlik va raqobatchilikni rag'batlantirish, unumli mehnat imkoniyatlarini kuchaytirish, shuningdek davlat tasarrufidan chiqarish va mulkni xususiylashtirish sohasida yagona siyosat o'tkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish komiteti tashkil etildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 7 fevripaldagi PF-758-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkoplikni qo'llab-quvvatlash komitetini tashkil qilish to'g'pisida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkoplikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi sifatida tashkil etilgan.
3. Mulkni izchillik bilan davlat tasarrufidan chiqarish na xususiylashtirishni ta'minlash, shu asosda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan ko'p tarmoqli bozor iqtisodiyotini shakllantirish, davlatga daxldor bo'lmagan sohaning rolini kuchaytirish va raqobat muhitni vujudga keltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 15 martdagi PF-789-son "O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat komitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3602-sonli Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan hamda davlat boshqaruv organlari orasida vazifa, funktsiya va vakolatlarni aniq belgilab qo'yishni ta'minlash maqsadida, qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 maydagi PF-3603-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining nomini o'zgartirish to'g'risida"gi Farmoni doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining nomi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi deb o'zgartirildi.

5. Xususiylashtirish jarayonlarini yanada faollashtirish, davlat mulkini boshqarish samaradorligini oshirish, shuningdek Davlat mulki qo‘mitasining markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 26 apreldagi PQ–335-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan Davlat mulki qo‘mitasi qayt atashkil etildi.
6. Bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lmish davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xususiy mulkchilik ko‘lamini kengaytirish, monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni amalga oshirish hamda real raqobatchilik muhitini shakllantirish, fond bozori, xususan, ikkilamchi fond bozorini jadal rivojlantirish, korporativ boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi PF-4483-son “O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, mazkur farmoni bilan Monopoliyaga qarshi kurashish va Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitalari birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sifatida tashkil etildi.

7. Xususiylashtirilgan davlat mulki negizida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini sifat jihatdan o'zgartirishni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlarini xususiylashtirilgandan keyin amaliy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-son "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi sifatida qayt tashkil etildi.

8. Institutsional va tarkibiy islohotlarni jadallik bilan amalga oshirish, davlat aktivlarini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartiblash, kapital bozorining ishonchli ishlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartiblash tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligini tashkil etish va unga tugatilayotgan Davlat raqobat qo‘mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish markazining shtat birliklari, shuningdek davlatning, shu jumladan xorijdagi aktivlarini boshqarish, xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish (xususan, davlat ulushlarini sotish), davlat mulklarini ijaraga berish, davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni joriy etish, davlat ishtirokidagi iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish, bankrotlik, baholash faoliyatini davlat tomonidan tartiblashni ta‘minlash, mulkni baholash standartlarini tasdiqlash va rieltorlarni sertifikatlash bo‘yicha vazifa, funksiya va vakolatlarini o‘tkazildi.¹⁸ Pravda Vostoka gazetasida xususiylashtirish davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishi va xususiy mulkdorlar sonining ko‘payishi uchun sharoit yaratilishi bo‘yicha mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi haqidagi fikrlar keltirilgan. So‘nggi o‘n yil ichida 1,2 trillion so‘mlik davlat aktivlari sotilgan bo‘lsa, birgina 2022-yilning o‘zida bu ko‘rsatkich 11,3 trillion so‘mga yetgan. Ya‘ni, so‘nggi bir yilda bu sohada erishilgan samara o‘n yilga nisbatan 10 barobar ko‘pdir. Xususiylashtirilgan obyektlarning samaradorligi ham ortib bormoqda.¹⁹ Ushbu nashrda keltirilishicha, davlat rahbarining xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish

¹⁸ <https://davaktiv.uz/oz/menu/tarihi>

¹⁹ Правда востока. Общественно-политическая газета. 25 марта 2023 года суббота №58 (30095). Стр.1

sohasida tegishli farmoni doirasida uchta yo‘nalish – aksiyalar, ko‘chmas mulkni sotish va IPO tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilovchi yangi xususiylashtirish dasturini tasdiqlandi. Birinchidan, 1000 ta korxonaning davlat ulushlari sotuvga chiqariladi. Ikkinchidan, ochiq kimoshdi savdosiga 1000 ta ko‘chmas mulk obyekti qo‘yiladi. Ularga 600 gektar yer va umumiy maydoni 1 million kvadrat metrlik binolar kiradi. Eng muhimi, ular infratuzilma bilan ta'minlangan va aholi punktlariga yaqin joylashgan. Ushbu ob'ektlarni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida ularni sotishga tayyorlash muddati joriy 80 kundan 48 kungacha qisqartiriladi. Ikki ming kvadrat metrgacha bo'lgan ob'ektlarni sotuvga qo'yishga ruxsat beriladi. metr tadbirkorlarning bevosita iltimosiga binoan. Uchinchidan, 40 ta yirik korxonalar va banklardagi davlat ulushi “xalq IPO”si orqali sotish amalga oshiriladi. Xususan, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O‘zbekiston metallurgiya kombinalari, “O‘ztelekom”, Milliy bank, “Sanoatqurilishbank” kabi yirik korxonalarining o‘rtacha ikki foizlik daromadli aksiyalari ilk bor aholiga taklif etiladi. Aholi aksiyalarni bevosita korxonalaridan sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aksiyalari IPO orqali sotib olingan kompaniyalar besh yil davomida sof foydasining kamida 30 foizini dividendlar to'lashga sarflaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur dastur joriy yilda 13 trillion so‘m daromad keltirishi, uch mingga yaqin yangi korxonalar va 50 ming ish o‘rni barpo etilishiga xizmat qiladi. Aholi va tadbirkorlarni davlat mulkini xususiylashtirish imkoniyatlari haqida keng xabardor qilish, ularni hujjatlashtirish bilan bog‘liq yumushlariga ko‘maklashish ta’minlanadi.²⁰

Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichi xususiyatlari

Davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini

²⁰ Правда востока. Общественно-политическая газета. 25 марта 2023 года суббота №58 (30095). Стр.1

yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» Farmonida o'z aksini topgan²¹.

Davlat tasarrufidan mulkni chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari bilan parallel ravishda bozor infratuzilmasini shakllantirish va ularni rivojlantirish harakatlari ham muvaffaqiyatli kechdi. Bu natijalar O'zbekiston uchun butunlay yangi fond birjalari, tovar-xomashyo birjalari hamda ipoteka bozorlari, investitsiya fondlari, auditorlik, maslahat va shu kabi boshqa ko'mak berish tuzilmalarini tashkil topishi va rivojlanishida namoyon bo'lib bordi²².

Hozirgi vaqtda o'z ahamiyati va xususiylashtirish usullariga ko'ra davlat aktivlari quyidagi guruhlangan tartibda sotiladi:

1-guruh. Butunlay sotib yuboriladigan davlat korxonalari (obyektlari) va birjada ochiq savdolarida to'liq xususiy mulkka aylantiriladigan aktsiyalarning davlatga tegishli bo'lgan paketi va davlatga tegishli ulushlar. Ushbu guruhdagi korxonalar aktivlarini xususiylashtirishda obyektlar yoki aktsiyalar paketlari savdo maydonchasiga qo'yishdan foydalaniladi, reklama kampaniyasi kuchaytirilib sotishga ko'maklashuvchi aloqador institutlar ishtirokida birja orqali oson sotiladi. Talab bo'lmagan mulklarga nisbatan dastlabki sotish narxlarini pasaytirish mexanizmi ishlatiladi.

2-guruh. Sarmoyadorlar tomonidan investitsiya va boshqa majburiyatlarning bajarilishi evaziga nol qiymatda sotiladigan korxonalar va obyektlar. Ushbu obyektlar sarmoyadorlarga nol qiymat bo'yicha sotilgan past rentabelli, surunkali zarar ko'rib ishlaydigan, iqtisodiy nochor davlat korxonalarining budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha to'lovlari va to'lovlar bo'yicha hisoblangan penyalalar va jarimalar ko'rinishidagi qarzlari davlat hukumati tomonidan hisobdan chiqariladi.

3-guruh. Davlat ulushi bo'lgan aktsiyalar paketi xalqaro tenderlarda sotiladigan va strategik ahamiyatli korxonalar. Nisbatan yirik strategik ahamiyatli korxonalar ochiq xalqaro tenderlarni tashkil qilish yo'li va yakka-yakka loyihalar tartibida

²¹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 109 bet

²² B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 108 bet

xususiylashtirish jarayonlari orqali sotiladi. Bunday ochiq xalqaro tenderlarda ishtirok etish uchun xususiylashtirilishi ko`zda tutilayotgan korxonaga sarmoyadorlarning investitsiya kiritish va uni yanada rivojlantirish biznes-loyihalarining taqdim etilishiga asosiy e`tibor qaratiladi.

Tayanch iboralar:

davlat mulki, davlat tadbirkorligi, davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadlari, davlat mulkini xususiylashtirishning bosqichlari, Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning hozirgi bosqichining xususiylatlari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat mulkidan tashqari qanday mulk shakllarini bilasiz?
2. Davlat mulkini boshqarish nima?
3. Davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadlari qaysilar?
4. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning qanday bosqichlarini ajrata olasiz?
5. Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning hozirgi zamon xususiylatlarini sanashga harakat qiling

5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shni dasturlash, prognozlash va rejalashtirish.

Reja:

1.Ijtimoiy-iqtisodiy o`shni dasturlash va prognozlashning zarurligi va ahamiyati.

2.Prognozlashning iqtisodiy siyosatda tutgan o`rni.

3.Ilmiy prognozlashning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari.

Ijtimoiy-iqtisodiy o`shni dasturlash va prognozlashning zarurligi va

ahamiyati.

Iqtisodiyotni tartiblashning eng muhim davlat shakllariga ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni prognozlash, dasturlash va rejalashtirish kiradi. Ushbu tartiblash shakllarinig birligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashtirilishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashning chuqurlashuvi, davlat mulkining ishtiroki, iqtisodiyotga yo`naltiriladigan sarmoyalar harakatini va uzoq muddatlili oqibatlarini o`rganishni nazarda tutadi. Shu sababli barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning rivojlanishi prognozlashtiriladi, dasturlanadi va rejalashtiriladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishini prognozlash qisqa muddatga (1-2 yil), o`rta muddatga (5 yilgacha), uzoq muddatga (taxminan 20 yilgacha) mo`ljallanadi. Prognozlashning ekstrapolyasiya usulida o`tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish ko`rsatkichlari va holati, bozor konyunkturasining o`zgarib borish tendentsiyalariga asoslanib, kelajakda Ijtimoiy-iqtisodiy o`shish darajasi qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi oldindan bashorat qilinadi. Olingan prognozlarga iqtisodiyot subyektlarining turli iqtisodiy hatti-harakatlariini turli so`rovlar orqali o`rganib borish orqali aniqlik va tuzatishlar kiritib boriladi.

Puxta ishlab chiqilgan prognozlar negizida Ijtimoiy-iqtisodiy o`shish dasturlari paydo bo`ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shish dasturlarida iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari o`rnatiladi. Ko`rsatib o`tilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun sarmoyalarni sarflash rejalari tuziladi, tovar va xizmatlarni taklif qilish hajmlari bilan talab orasidagi nisbatlarga baho beriladi. Tovlar va xizmatlar ishlab chiqarishning importga bo`g`liqligi, ishlab chiqarish va iste`mol o`rtasidagi, ishlab chiqarish va eksport o`rtasidagi, eksport va import o`rtasidagi bo`g`liqlar ham o`rganiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishning umumdavlat dasturlari negizida rejalar qabul qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkchilik plyuralizmi sharoitida dastur va rejalar davlat korxonalarini uchun direktiv, nodavlat sektor uchun esa taklif, tavsiya, indikativ xarakterga ega bo`ladi. Nodavlat sektorining Ijtimoiy-iqtisodiy o`shish dasturlariga mos harakat qilishlari uchun ularga soliqlardan, kredit, subsidiyalar, xom ashyo, yoqilg`i-

energiya resurslari, asbob-uskunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda turli imtiyozlar beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlash va rejalashtirishning asosiy maqsadi iqtisodiyotda yuz berib turadigan turli nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining paydo bo`lishidan saqlashga qaratilgan bo`ladi. Bu tartiblash vositasining iqtisodiy hayotga oqilona singib ketishi dastur va rejalarning tadbirkorlik manfaatlariga qay darajada mosligiga, davlatning rag`batlantiruvchilik, moliyalashtiruvchanlik imkoniyatlariga hamda rejalarning ilmiylik darajalariga bo`g`liq bo`ladi.

Prognozlashning iqtisodiy siyosatda tutgan o`rni.

Prognozlash va rejalashtirish, tegishli kontseptsiya, dastur va hodisani ishlab chiqishda odatda ijrochilar oldiga qo'yiladigan muhim vazifalar – bu iqtisodiyotning yuqori samarali tuzilmasini saqlash va rivojlantirish, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini asoslash va tartiblash, ishlab chiqarishning yuqori darajasi. uning bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash, moddiy, energiya, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni, aholining yetarli daromad darajasini va ijtimoiy ta'minotini ta'minlash, mintaqa, davlat va tashqi dunyo bilan mavjud bo'lgan turli xil iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish va yangilarini o'rnatish. Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy, eng muhim yo'nalishlari (tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar va boshqalar) bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadlari va qiymatlarini aniqlash jarayoni va ularni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish atrof-muhit omillarini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Strategik rejalashtirishda iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini, iqtisodiyotning barqarorligini, aholi turmush darajasini, mamlakat mudofaa qobiliyatini va hokazolarni belgilaydigan vazifalar hal qilinadi. Shu bilan birga, yakuniy natija qat'iy belgilanmagan, lekin o'lcham va vaqt bo'yicha berilgan maksimal chegaralar bilan ma'lum bir zonada joylashgan. Vazifalarning tabiati boshqaruv organi tomonidan belgilab berilgan strategik rivojlanish maqsadlariga mos kelib, ular hal qiluvchi darajada rejalashtirishning yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Masalan, ular yalpi ichki mahsulotning moddiy va energiya

sig'imini keskin pasayishi, yoqilg'i resurslari bilan ta'minlashda yanada barqarorlikka erishish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, aholi turmush darajasini eng rivojlangan mamlakatlar vaboshqa dunyo mamlakatlari darajasiga yaqinlashtirish bo'lishi mumkin.²³ Oxir oqibat, strategik rejalashtirishning maqsadi rejalashtirish amalga oshiriladigan davlat yoki boshqa ob'ektning kelajakdagi rivojlanishi uchun modelni yaratishdir. Aksariyat hollarda bir nechta muqobil modellar ishlab chiqiladi, ulardan eng mukammali tanlanadi. Strategik rejalashtirish - bu moslashuvchan jarayon bo'lib, buning natijasida doimiy monitoring va baholash asosida dasturlar, prognozlar, rejalar, qo'shimchalar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimiga mamlakat, hamkorlar va jahon hamjamiyatining iqtisodiy rivojlanishidagi o'zgarishlarga moslashgan qarorlarni muntazam (yillik) tuzatish amalga oshiriladi.. Uning maqsadi nafaqat mavjud vaziyat nuqtai nazaridan, balki birinchi navbatda ertangi kun nuqtai nazaridan ham oqilona va joriy boshqaruv qarorlari qabul qilish bilan oqlanadi. Nisbatan uzoq vaqtni, ko'rib chiqilayotgan ob'ektning murakkabligini va shu munosabat bilan ko'plab ko'rsatkichlarning noaniqligini hisobga olgan holda, strategik rejalashtirish asosan uni ishlab chiqish jarayonida tegishli prognozlash usullaridan foydalangan holda faol prognozlash funksiyalarini bajaradi. Uzoq muddatli prognozlarga kelsak, strategik rejalarni ishlab chiqish muddati 5-10 yil yoki undan ko'proq.

Direktiv rejalashtirish respublika va mahalliy davlat budjetlari mablag'larini aniq maqsadlarga ajratgan holda, ularning maqsadlilik, o'zlashtirish hajmlari va muddatlarini belgilash, belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilishni nazarda tutadi. Qattiq ma'muriy choralarni qo'llash, agar mamlakat ahvoli og'irlashganda va barqarorlikni buzuvchi ta'sirlarni bartaraf etish uchun butun jamiyatning maqsadli sa'y-harakatlarini amalga oshirish zarur bo'lsa, o'zini oqlaydi.

²³ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

Indikativ rejalashtirish aniq iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda strategik rivojlanish rejasida belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy ish quroli hisoblanadi. Indikativ prognoz rejasi strategik rejani to'ldiradi va qisqa va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Indikativ reja quyida keltiriladigan qismlardan iborat bo'ladi: ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kontsepsiyasi; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot prognozi; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rejalashtirish; iqtisodiy tartiblovchilar tizimi va davlat maqsadli kompleks dasturlari. So'nggi paytlarda indikativ rejalashtirish dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ko'proq e'tirof etilmoqda va qo'llanilmoqda. Ushbu shakl qat'iy direktiv rejalashtirishdan voz kechishni nazarda tutadi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ko'rinishidagi ko'rsatkichlar majmuasi asosida iqtisodiyotni tartiblashni ta'minlaydi. U asosan maslahat xarakteriga ega, lekin bevosita va bilvosita tartibga soluvchilar tizimi belgilangan maqsadlarga erishish uchun imtiyozlar, litsenziyalar, kvotalar, byudjet subsidiyalari, subsidiyalar shaklida davlat ixtiyorida qoladi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan Ijtimoiy-iqtisodiy o'sish dasturlari, prognozlari, prognoz rejaları faol indikativ rejalashtirish tamoyillari asosida qurilgan. Quyidagi ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida ishlaydi; yalpi ichki mahsulot; barcha moliyalashtirish manbalaridan investitsiyalar; chakana savdo aylanmasi; ishchi va xizmatchilarning real ish haqi; xalq xo'jaligida bandlik darajasi va boshqalar. Biroq, indikativ rejalashtirish o'z-o'zidan barcha ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilmaydi. Uni hayotga tatbiq etishning muvaffaqiyati jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ko'plab omillar bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari: iqtisodiy rivojlanishni qonunchilik bilan ta'minlash; mamlakat rahbariyati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning rejalar mazmuniga muvofiqligi; tadbirkorlik sub'ektlarini maqsadlarga erishish uchun rag'batlantirish; xo'jalik huquqi sohasida ham hokimiyat organlari, ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonuniylikka rioya etilishi. Shunday qilib, rejalashtirishning barcha uchta shakli amalda qo'llanilishi mumkin: strategik, direktiv, indikativ. Strategik rejalashtirish iqtisodiyotni boshqarishning barcha darajalarida qo'llanilishi kerak. Direktiv shakl

respublika yoki mahalliy byudjetlarni muayyan iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun rejalashtirishda, shuningdek qonunda maxsus belgilangan favqulodda vaziyatlarda (xavfli tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'ta muhim davlat vazifalarini bajarish) qo'llanilishi mumkin. Boshqa barcha holatlarda rejalashtirish indikativ shaklda bo'ladi. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning asosiy ko'rsatkichlarini belgilaydi va ko'rsatkichlarga barcha bevosita va bilvosita tartiblovchilar vositasida erishishga intiladi. So'nggi paytlarda prognozlarga doimiy ravishda o'sib borayotgan ehtiyojni ta'kidlash kerak. Hamma joyda ilmiy nazariyalarning asosli qarorlar qabul qilish uchun bashorat qilish funksiyasining amaliy ahamiyati yanada keskinroq namoyon bo'ldi. Bashoratli tadqiqotlar sifatini oshirishning dolzarbligi ortib bormoqda, bu esa prognozlashda yuzaga keladigan asosiy muammolarni yanada chuqurroq o'rganish va ishlab chiqishni talab qiladi. Jahon tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish ma'lum darajada bu muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Oldindan ishlab chiqilgan barcha narsalarni - prognozlash va rejalashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini, shuningdek, prognozlar, rejalar, dasturlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha amaliy tajribani foydalanishga topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday iqtisodiy hodisani rivojlanishda bilish mumkin. Shu munosabat bilan prognozlash, metodologiyasi va rejalashtirish amaliyoti rivojlanishining tarixiy jihati, ularning ob'ektiv ildizlarini ochib berish va ularni shakllantirishning o'ziga xos sharoitlarini shakllantirish qiziqish uyg'otadi.

Ilmiy prognozlashning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari.

Fan va amaliyot rejalashtirishning turli shakllarini ishlab chiqdi, ulardan eng kattasi tarqatish qabul qilingan direktiv, indikativ, strategik. Rejalashtirishning bu shakllari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunda prognozlash direktiv va indikativ – yuqori davlat organlarining prognozlashda ishtirok etish darajasiga ko'ra turlarga hamda strategik (istiqbolli) –tashqi omillarning ta'sirini inobatga olgani bo'yicha turlarga

bo‘linadi. Direktiv rejalashtirish, ya'ni majburiy, qat'iy majburiy, birinchi navbatda, qo'mondonlik va boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish majburiy shart orqali amalga oshiriladi. Indikativ rejalashtirish - bu iqtisodiy tizimni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi parametrlar tizimini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Indikativ rejalashtirish strategik rejalashtirishni to‘ldiradi va odatda iqtisodiyotni qisqa va o‘rta muddatli rejalashtirishda qo‘llaniladi. Indikativ rejalashtirish ko‘rsatkichlari sifatida iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy holat, pulning aylanishi, bandlik va hokazolar misol bo‘lishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlardan foydalanishning asosiy maqsadi bozor ma‘lum muammolarni hal qila olmagan holatda davlatning qayerga va qanday aralashishini aniqlab beradi. Strategik rejalashtirish - bu iqtisodiy maqsadlar va qadriyatlarni aniqlash jarayoni bo‘lib, eng muhim sohaladagi ko'rsatkichlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi (tarmoqlar, korxonalar va boshqalar) o'rta va uzoq muddatli amalga oshirish rejasini aks ettiradi. Taktik rejalashtirish belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonidir. Taktik rejalar asosan o'rta muddatli bo‘ladi va umumiy ishlab chiqarish samaradorlikni oshirish rezervlarini asoslash va amalga oshirishga imkon beradi. Operatsion rejalashtirish qisqa muddatga tuzilib taktik rejaning kunbay amalga oshirilishini misol keltirish mumkin.

Prognozlarni ishlab chiqish to‘rtta bosqichdan iborat bo‘ladi. **Birinchi bosqich**da tahliliy ishlar amalga oshiriladi, shu jumladan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni har tomonlama tahlil qilishni talab qiladi. Bu bosqichda prognozlash usullari aniqlab olinadi. **Ikkinchi bosqich**da Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqa organlar bilan birgalikda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqadi. Bunda ijtimoiy iqtisodiy holat baholanadi, asosiy maqsadlar aniqlab olinadi, iqtisodiyotning rivojlanish ssenariylari taklif etiladi va iqtisodiy siyosatni to‘g‘rilash bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. **Uchinchi bosqich**da Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan prognoz rejasi ishlab chiqiladi, maqsadli ko‘rsatkichlar aniqlanadi va boshqa organlarning mulohazalari inobatga olinib balanslashgan ko‘rsatkichlar belgilab olinadi. Iqtisodiyot va moliya

vazirligi YaIM hamda uning tuzilishi, narx indeksleri, umuman, Davlat byudjetini shakllanishini aks ettiruvchi va asosiy pul-kredit siyosatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlarni hisoblaydi. **To'rtinchi bosqich**da Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tayyorlangan prognoz reja Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi va alohida parametrlarni ko'rib chiqish bo'yicha Prezident hamda Oliy Majlisga ham yuboriladi. Ushbu bosqichda zarurat bo'lsa, prognoz rejaga o'zgartirish kiritiladi .

Tayanch iboralar:

Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlash, Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlash prognozlash, Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni rejalashtirish, prognozlash bosqichlari, prognozlash usullari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlash nima?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni dasturlashning qanday ahamiyati bor?
3. Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni rejalashtirish deganda nimani tushinasiz?
4. Ilmiy prognozlashni ishlab chiqishda qanday bosqichlar uchraydi?
5. Prognozlashni ishlab chiqishning qanday usullarini bilasiz?

6-mavzu. Iqtisodiyotda raqobatni qo'llab-quvvatlash. Monopoliyalar va antimonopol siyosat.

Reja:

1. **Raqobatning mohiyati, shakllari va raqobatlashish usullari.**
2. **Iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlar.**
3. **O'zbekiston iqtisodiyotida monopolistik faoliyatni tartiblashning maqsad va yo'nalishlari.**

4. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi kurash siyosatining yo'nalishlari.

Raqobatning mohiyati, shakllari va raqobatlashish usullari.

Raqobat – bu ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning ko‘proq foyda olish, iste’molchi va xaridorlarning ko‘proq naflilik olishga bo‘yicha o‘zaro kurashini anglatadi²⁴.

Raqobat kurashida ishtirok etuvchilar nuqtai-nazaridan:

tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasida ko‘proq foyda olishga qaratilgan raqobat;

resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasida ko‘proq foyda olishga qaratilgan raqobat; iste’molchi (xaridor)lar o‘rtasida ko‘proq naflilikka erishish bo‘yicha raqobat turlari ajratiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) tartiblash vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) taqsimlash vazifasi;
- 5) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartiblash vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste’mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta’sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya’ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘p samara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

²⁴ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 223 bet

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor subyektlarining iqtisodiy o‘shishiga sharoit yaratuvchi turli yangiliklarning biznes jarayoniga qo‘llashni nazarda tutadi.

Taqsimlash vazifasi deganda raqobatning ishlab chiqarilgan mahsulotning jami hajmi (YaIM) ning iste‘molchilar orasida ratsional taqsimlash jarayoniga bevosita va bilvosita o‘zgartirish kiritishiga aytiladi²⁵.

Raqobatning nazorat vazifasi bozor subyektlarining boshqalari ustidan monopolistik ustunlik o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymasligini nazarda tutadi.

Miqyosiga ko‘ra, raqobat tarmoqlararo va tarmoq ichidagi raqobatga bo‘linadi. Tarmoqlararo raqobat iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalaridagi korxonalar o‘rtasida yuqoriroq rentabellikka erishish uchun olib boriladigan kurash hisoblanadi. Bunday raqobat natijasida kapital samaradorlik past bo‘lgan tarmoqlardan foyda me‘yori baland bo‘lgan tarmoqlarga oqib o‘tishi sodir bo‘ladi²⁶.

Tarmoq ichidagi raqobat esa, ishlab chiqarish hamda sotishning ma‘lum afzalliklariga ega bo‘lish evaziga qo‘shimcha foyda ko‘rish uchun bir tarmoq korxonalarining o‘zaro kurashini anglatadi. Tarmoq ichidagi raqobat sharoiti texnik qurollanish darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan korxonalarga qo‘shimcha foyda olishni va aksincha, texnik zaif korxonalar ishlab chiqarilgan tovar qiymati bir qismining yo‘qotilishini keltirib chiqaradi.

Tarmoq ichidagi raqobat to‘rtta shaklga ajratiladi: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va monopoliyadir²⁷.

Sof raqobat sharoiti bir-biriga juda o‘xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi juda ko‘p sonli korxonalar va ushbu mahsulotning juda ko‘p sonli xaridor va iste‘molchilarining mavjudligini taqozo qiladi. Bunday raqobat sharoitida alohida korxonalar yoki iste‘molchilar mahsulot narxi va hajmi ustidan ustidan nazorat o‘rnata olishmaydi²⁸.

²⁵ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 224 bet

²⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 226 bet

²⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 226 bet

²⁸ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 226 bet

Monopolistik raqobat ham monopoliya, ham raqobat unsurlarining uygʻunligidan iborat boʻladi. Bunday raqobat modelida tarmoqdagi birxil va oʻxshash mahsulotlarning koʻplab ishlab chiqaruvchilari oʻzaro qulay narx va qulay sotish hajmlariga erishish borasida oʻzaro raqobatlashadilar. Ammo, bir vaqtning oʻzida, maʼlum ishlab chiqaruvchi oʻz mahsuloti sifat darajasini, dizaynini, qadoqlanishini, sotish sharoitlarini va boshqa xususiyatlarini tabaqalashtirish, yaʼni oʻxshash turdagi boshqa mahsulotlardan ayrim jihatlarini farqlantirish evaziga monopol ishlab chiqaruvchiga aylanib olishi mumkin²⁹.

Tarmoq ichidagi raqobatning oligopoliya shakli tarmoqda bir nechta korxonalarining mavjudligini va hukmronlik qilishini koʻzda tutadi. Ushbu modelda alohida mavqega ega oligopolistik korxonalarining tarmoq raqobatiga taʼsir koʻrsatish ehtimoli bor, ammo ushbu mavqedagi korxonalarining oʻzaro maxfiy til biriktirish tarmoq raqobat muhitini buzib yuborishi mumkin (shunday maxfiy kelishuvlar antimonopol qonunchilik bilan taʼqiqlanadi)³⁰.

Monopoliyada tarmoqda bitta korxoaning hukmronligi kuzatiladi, shu sababli mazkur yagona korxonada bozor narxlari va bozorhajmi ustidan toʻliq nazorat oʻrnatishga harakat qiladi³¹.

Iqtisodiy adabiyotlarda raqobatlashishning gʻirrom va halol usullari ajratiladi. Raqobatlashishning qonunlarni oyoqosti qilgan, inson qadriyatlarini mensimagan, noanʼanaviy, ijtimoiy axloq qoidalari va biznes etiket doirasidan tashqaridagi, noiqtisodiy (yaʼni, sirlarni oshkor qilish, kuch ishlatish, raqiblar obroʻsiga putur yetkazish, agressiya, majburlash kabilar.) usullaridan foydalanish gʻirrom raqobat deyiladi. Shuningdek, “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat toʻgrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Qonunida insofsiz raqobat sifatida xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qoʻlga kiritishga qaratilgan

²⁹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 227 bet

³⁰ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 227 bet

³¹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 227 bet

ular o'rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan³² va iste'molchilarni chalg'itish usullari qo'llanuvchi usullar keltiriladi.

Halol raqobat – raqobat kurashi qonun ustivorligi asosida ro'yobga chiquvchi, davlat qonunlari doirasida va jamiyat tomonidan e'tirof etilgan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining raqobat ustunliklariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni rad qiluvchi qoidalarni ko'zda tutadi.

Raqobat kurashida ikki usul ajratiladi: narx vositasida raqobat va narx vositasisiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashish eng keng tarqalgan usul bo'lib, ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning o'z tovarlari narxini boshqalarining o'xshash tovarlariga eng qulayroq darajada belgilash hisoblanadi va “narxlar jangi” ham deyiladi.

Narx vositasisiz raqobatda raqobat kurashining asosiy faktori tovarlar narxidan tashqarida yotadi, ya'ni tovarning sifati, servis xizmati ko'rsatilishi, ishlab chiqaruvchining obro'-nufuzi ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlar.

“Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'grisida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha monopolistik faoliyat sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni to'sishga, cheklash yoki bartaraf qilishga qaratilgan hatti-harakatlari yoki harakatsizligi, deb ta'rif beriladi.

Iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlar davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishning poydevorlaridan biri bo'lgan raqobat mexanizmining to'laqonli ishlashi va mamlakat aholisini ma'lum darajada ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy monopolizmga qarshi dastlabki qonun 1890 yilda (Antitrest qonuni - Sherman qonuni) AQShda qabul qilingan. Hozirda antimonopol qonunlar deyarli barcha

³² Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 102 bet

rivojlangan varivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilingan, ushbu qonunchilik asosan besh yoʻnalishdagi chora-tadbirlarni qamrab oladi: **birinchidan**, milliy iqtisodiyotda raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va ragʻbatlantirishni taʼminlash; **ikkinchidan**, bozor sub'yektlari, markaziy hokimiyat va boshqaruv organlarining monopolistik hatti-harakatlarini, xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarning buyrugʻini istisno qilish imkonini beruvchi raqobatni kuchaytirish yoʻlidagi mavjud toʻsiqlarni qonuniy asosda bartaraf etish; **uchinchidan**, monopol harakatlar va halol raqobat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni tartiblashning huquqiy rejimini belgilash; **toʻrtinchidan**, kichik va oʻrta biznes manfaatlarini yirik biznesning oʻzboshimchaliklaridan himoya qilish; **beshinchidan**, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Ammo maʼlum shart-sharoitlarda tabiiy monopoliyalarning faoliyatiga toʻsqinlik qilmaslikka qaror qilinadi. Eng asosiy mezon bu – quyida nomlari keltiriladigan soha va tarmoqlarda raqobat sharoitida faoliyat yurituvchi alohida olingan korxonalarining birortasida ham texnologik mukammallik va iqtisodiy samaradorlikka erishilmaydi va shu sababli yagona ishlab chiqaruvchi va/yoki yagona yetkazib beruvchi mahsulotlaridan foydalanishga qaror qilinadi. “Tabiiy monopoliyalar toʻgrisida”gi Qonunga muvofiq tabiiy monopoliyalar subyektlari bilan isteʼmolchilar va davlat manfaatlarining yaqqol mutanosibliigi taʼminlanishi kerak. Mamlakatimizda quyidagi sohalardagi tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatlari tartibga solinadi:

- neftni, neft mahsulotlarini va gazni quvur orqali transportirovka etish;
- elektr energiyasini va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda yetkazib berish;
- temir yoʻllaridan va uning infratuzilmasidan foydalanish;
- umumiy va erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlarini koʻrsatish;
- suv quvurlar orqali yetkazib berish va kanalizatsion xizmatlar;
- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari;
- transport terminali orqali koʻrsatiladigan xizmatlar.

O‘zbekiston Respublikasi “Monopoliyalarga qarshi kurash” Qonunida tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va hukumat tomonidan vakolat bergan organ, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish davlat qo‘mitasi, uning joylardagi idoralari tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartiblaydi, qonuniy-me`yoriy hujjatlar buzilishini keltirib chiqargan tabiiy monopoliya subyektlarini jarimalarga tortadi yoki qonun buzilishi holatlarining oldini va bartaraf qilish bo‘yicha bajarilishi majburiy ko‘rsatmalar yuboradi, shuningdek, sudga da’vo arizasi kiritadi.

Bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham mas’uliyatlari mavjud. Masalan, bajarilishi majburiy bo‘lgan, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunga zid bo‘lsa-da baribir qabul qilingan hujjatlarni bekor qilish yoki tegishli o‘zgartirishlarni kiritish bo‘yicha ko‘rsatmalar yuborishi mumkin.

Monopolistik faoliyatning oldini olish va raqobat muhiti yaratishdan ko‘zda tutilgan madsadlardan biri - bu iste’molchilarning tanlov erkinligini ta’minlash va iste’molchi huquqlarini himoya qilishdir. Shundan kelib chiqib, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘grisida”gi Qonunga binoan davlat iste’molchilarning mahsulot xarid qilish va mahsulotdan foydalanish vaqtidagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa manfaatlarining himoya qilinishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida monopolistik faoliyatni tartiblashning maqsad va yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1992 yilning 3-avgustida “Monopol faoliyatni cheklash to‘grisida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun doirasida iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshira boshlandi.

1996 yilning 27 dekabrda “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘grisida” Qonun, 1996 yilning 26 aprelida “Iste’molchilarning huquqlarini

himoya qilish to‘grisida” Qonunlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar meyor va talablarini ro‘yobga chiqarish, monopoliyaga qarshi kurash va monopolistik faoliyat ustidan nazorat qilishga qaratilgan davlat idorasi sifatida 1992 yilda Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi tashkil etilgan va mazkur tashkilot 1996 yilning 15 mayidan boshlab Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasiga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yilning 26-fevraldagi “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartiblash va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 4191-sonli Farmonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yuqorida nomi keltirilgan qo‘mitaning asosiy funksiyalaridan chiqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasida monopoliyalarga qarshi kurash siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar³³:

- mamlakatda erkin raqobat muhitini rag‘batlantirish uchun mustahkam me‘yoriy-huquqiy asosni shakllantirish va uni zaruriy tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlarga muvofiqlashtirish;

- bozorga xos bo‘lgan talablarga javob beruvchi raqobatning qonunlarini, umumiy qabul qilingan me‘yorlar va qoidalarni samarali ravishda amalga oshirishni ta‘minlovchi kuchli antimonopol tizimni yaratish;

- insofsiz raqobatni yuzaga keltirish, ayniqsa, tovar va moliya bozorlarida, avvalambor, iste‘mol tovarlari bozorida monopollashtirishning har qanaqa ko‘rinishlarining oldini olish, cheklash va unga barham berish;

- davlatning kontseptual antimonopol siyosatini amalga oshirish, monopolizmni bartaraf qilish doirasida respublika, mintaqaviy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirilishni muvofiqlashtirish;

- monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilinishi ustidan, shuningdek, tegishli vakolatlar doirasida tabiiy monopoliyalar ishtirokchilarining faoliyati ustidan nazoratni

³³ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 241 bet

amalga oshirish;

- reklama to'g'risidagi qonunchilik va iste'molchi huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yish;

- iste'mol tovarlari narxлари va xizmatlar tariflari monitoringini muntazam o'tkazib borish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning va tariflarning asossiz ravishda oshib ketishi, bozorlarda sifatgajavob bermaydigan iste'mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq insofsiz raqobatni cheklash bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqib amalga oshirish;

- monopol mavqedagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan oqilona tartiblash va nazorat qilish, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, reklama faoliyatini tartiblash bilan bog'liq me'yoriy-metodologik bazani shakllantirish va takomillashtirib borish va boshqalar.

2012 yilda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi qonunchilikda monopolistik faoliyat uchun asos bo'ladigan "ustun mavqe"³⁴ tushinchasi kiritildi. "Ustun mavqe" deganda o'rnini bosa olmaydigan tovar bozorida yoki bir-birining o'rnini bosa oladigan tovar bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyekt(lar)ning o'ziga nisbatan raqobatni chegaralashga ta'sir ko'rsatish, raqib xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirish erkinligini sun'iy qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy erkinligini boshqa ko'rinishlarda chegaralash imkoniyatini beruvchi hukmron mavqe qaraladi. Tegishli tovar bozoridagi ulushi 65% ga teng va 65% dan ko'p bo'lgan ulushni tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt(lar)ning mavqei "ustun mavqe" deb aytiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi 35% dan 65% gacha bo'lib, bu monopoliyaga qarshi kurash davlat organi tomonidan quyidagi shartlar asosida, ya'ni:

- xo'jalik yurituvchi subyektning aniq tovar bozoridagi ulushi barqaror bo'lsa;
- bozordagi mavjud raqobatchilarga tegishli ulushlarning nisbiy miqdorlariga;
- tegishli tovar bozorini tafsiflab beruvchi boshqa bir qancha mezonlarga asosan

³⁴ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 101 bet

suyektlarning bozordagi mavqei “ustun mavqe” deb hisoblanishi mumkin.

“Ustun mavqe”dagi xo‘jalik yurituvchi subyektning raqobatni cheklovchi va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektning manfaatlarini kamsitgan yoxud kamsitishi mumkin bo‘lgan harakatlari, masalan, bozorlarda taqchilikni yuzaga chiqarish yoki taqchilikni saqlab turish va narxlarni keyinchalik oshirishni ko‘zlab tovarlarni muomaladan olib qo‘yib monopol qiymat yoki monopol arzon narxlarni o‘rnatish kabi hatti-harakatlari taqiqlanadi.

Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi kurash siyosatining yo'nalishlari

2012 yilda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va raqobatni qo‘llab-quvvatlash quyidagi vazifalarning bajarilishini taqozo etadi:

- monopolist-korxonalar, shuningdek, ayrim davlat boshqaruv organlarining raqobatga qarshi faoliyatining oldini olish, tadbirkorlik faoliyati erkinliklari va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada mustahkamlash,³⁵ bozor subyektlarining raqobatlashish bo‘yicha madaniyatini oshirish;

- erkin raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish, monopoliyaga qarshi davlat organlari tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish, ularning vakolatlari, mas‘uliyatlari va faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- monopoliyaga qarshi kurashuvchi davlat organlar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish va ushbu faoliyatlarni izchil ravishda takomillashtirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta‘minlash, raqobatni muhitini himoya qilish bilan bog‘liq ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.

³⁵ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

Tayanch iboralar:

raqobat, raqobat shakllari, raqobatlashish usullari, monopoliyalar, iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlar, O‘zbekistonda iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Raqobat deganda nimani tushinasiz?
2. Raqobatning asosiy turlari va shakllarini eslab ko‘ring.
3. Raqobatlashish usullari qaysilar?
4. Monopoliyalarning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?
5. Davlatning antimonopol siyosatini nimalarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak, deb o‘ylaysiz?
6. O‘zbekistonda iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosatining qanday ijobiy va salbiy jihatlarini ajratib ko‘rsata olasiz?

7-mavzu: Bozor iqtisodiyotida davlatning narx siyosati va inflyatsiyaga qarshi siyosati

- 1. Narx, uning vazifalari, turlari**
- 2. Bozor iqtisodiyotida narx ko‘rinishlari.**
- 3. Narxning tartibga soluvchanlik vazifasining ahamiyati.**
- 4. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari.**

Narx, uning vazifalari, turlari

Narx bozor kategoriyasi tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Narx nazariy jihatdan olganda tovar qiymatining puldagi ifodasi, qiymatning bozordagi ko‘rinishidir. Tovarlar qiymati va ularning nafliligi o‘zlarining namoyon bo‘lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik

esa iste'molchilarni rag'batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi. Narxlar mazmunini aniqlashda tovardagi ijtimoiy qiymat va ijtimoiy naflilik kabi ikki xil xususiyatning mujassamligini, bunda iste'mol qiymat (naflilik) qiymatni o'zida olib yuruvchi moddiy asos ekanligini to'g'ri hisobga olmaslik natijasida narx mazmuni turli olimlar va oqimlar tomonidan turlicha aniqlanmoqda va unga turlicha ta'rif berilmoqda.

Buning ustiga narxning darajasiga (yuqori yoki past bo'lishiga), uning o'zgarishiga turli xil omillar ta'sir qiladiki, bu ham masalani to'g'ri tushunishni bir oz chigallashtiradi. Alohida tovarlarga qilingan mehnat sarflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari ijtimoiy mehnat sarfi sifatida to'liq tan olinsa, boshqasi qisman tan olinadi, uchinchi esa umuman tan olinmasligi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, bozordagi mavjud narxlarga mehnat sarflari yoki qiymatning aynan o'zi deb qarash noto'g'ridir. Chunki unga mehnat sarfidan boshqa omillar ham ta'sir qilib, natijada narx qiymatdan past yoki yuqori bo'lishi mumkin. Tovarining xarid qilinishi alohida bir kishining emas, balki jamiyatning nafliligini, demakki ijtimoiy qiymatning ham yuzaga chiqqanligini bildiradi. Shunday qilib, **narx bir vaqtning o'zida ham qiymatni, ham naflilikni o'zida mujassamlashligini pulda ifodalab beradi.** Tovaridagi ikki xususiyat birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo'lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafliligi (iste'mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar sarf-xarajatlarni qoplab, imkoni boricha ko'proq foyda olishga sharoit yaratuvchi qiymatga ega bo'lishni, iste'molchilar esa, imkoni boricha xaridga yo'naltirilgan puliga nisbatan ko'proq naflilik (iste'mol qiymati) olishga intiladi³⁶. Ularning manfaatlari to'g'ri kelgan nuqtada, darajada narx o'rnatilib, tovar-pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo'ladi.

Narx bamisoli barometr kabi bozor holatini ko'rsatib turadi, narx pasayib ketsa, tovar bozori kasodlikka yo'liqqan bo'ladi, tovar nafsiz bo'lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini tubdan yaxshilash zarurligi pul tarkibiga qo'yiladi.

³⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 253 bet

Narxning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari ko'rsatib beradi. Narx nimaga tegishli bo'lishidan qat'i nazar (tovar, xizmat) beshta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi;
2. Hisob-kitob, o'lchov funksiyasi;
3. Iqtisodiy regulyator funksiyasi;
4. Raqobat vositasi funksiyasi;
5. Ijtimoiy himoya funksiyasi.

Bozor iqtisodiyotida narx ko'rinishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning quyidagi turlari mavjud:

- demping narx;
- nufuzli narx;
- milliy narx;
- arzonlashtirilgan narx;
- jahon narxi;
- yashirin narx;
- erkin narx;
- standart narx;
- kontrakt (ulgurji) narx;
- chakana narx;
- o'zgaruvchan narx;
- limit narx;
- muvozanat narx.

Bozor narxining asosiy xususiyatlari ularning doimo o'zgarib turish qobiliyatidir. Narxlar hech qachon sababsiz o'zgarmaydi. Yuqori narxlar esa yuqori sifatli, yangi iste'mol qobiliyatiga ega bo'lgan tovarlarga o'rnatiladi. Tovarning raqobatbardoshligi va bozordagi o'rni narx darajasiga bog'liqdir.

Narx belgilash maqsadlari: bozor ulushini ko'paytirish, qisqa vaqt ichida eng ko'p foyda olish, yuqori foyda normasini uzoq muddat saqlab qolishdan iborat.

Birlamchi narxni aniqlashga vaqt bo'yicha narx darajasini aniq hisoblash ta'sir qiladi. Bu hisoblash bozor segmentiga, tovarning yashash davriga, talab va taklifning potensial miqdoriga bog'liq bo'ladi. Marketingda iqtisodiy faoliyatning barcha fazalari, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv va iste'molning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuritiladi.

Narxning tartibga soluvchanlik vazifasining ahamiyati.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarining asosiy maqsad-muddaolari qatoriga makroiqtisodiy muvozanatni va yuqori iqtisodiy o'sish darajasini ta'minlash vazifasi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda inflyasiya sur'atlarini jilovlamay turib, makroiqtisodiy barqarorlik haqida fikr yuritish o'rinsizdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning narxni tartiblash siyosati ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotdagidan farqli o'laroq keng qamrovli emas. Shunday bo'lsa-da, bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda narxning shakllanishi stixiyali tarzda ro'yobga chiqadi, deb hisoblash to'g'ri emas. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham narx-navo masalasi har doim davlatning e'tiborida bo'ladi, davlat tomonidan u yoki bu darajada tartibga solib turiladi. Ayniqsa, jamiyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narxlarning shakllanishi va o'zgarishi davlatning diqqat markazida bo'ladi. Narxni davlat tomonidan tartiblash - bu davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishining asosiy vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Narxning davlat tomonidan tartibga solinishidan asosiy maqsadlar quyida izohlanadi:

- 1) takror ishlab chiqarish jarayonlarining ko'zlangan mutanosibliklariga erishish;
- 2) inflyatsiya sur'atini me'yorlar darajasida saqlab turish;
- 3) tovar va xizmatlarga narxning o'sishi va ish haqlari orasidagi ma'lum proporsiyalarni ta'minlash;
- 4) davlat tasarrufidagi korxonalarini subsidiyalash;

5) davlat budjetiga kerakli resurslarni jalb etish.

Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari.

Davlat narx shakllanishiga va o'zgarishlariga bevosita va bilvosita yo'llar bilan ta'sir etadi.

Narxlarni bevosita davlat tomonidan tartiblash - bu davlat organlarining narxlarni belgilashga ma'muriy aralashuvi va muayyan narx qoidalarini o'rnatib qo'yishi hisoblanadi. Narxlarni davlat tomonidan bevosita tartiblash quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. muzlatish, ya'ni narx barqarorligini o'rnatish. Muzlatish umumiy bo'lishi mumkin, bu inflyatsiyaning yuqori sur'atlarida, boshqa usullar narxlarning o'sishini qoplay olmaganda yoki alohida tovarlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ikkinchi holda, muzlatish odatda iste'mol tovarlariga nisbatan qo'llaniladi;

2. qat'iy belgilangan narxlar va tariflarni belgilash. Ruxsat etilgan qiymatga ega bo'lgan qat'iy narxlar tegishli organlar va boshqaruv qarori bilan shakllantiriladi. Narxlarni u yoki bu darajada belgilash to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin, ushbu mahsulotning rentabelligini tahlil qilish va foyda miqdorini aniqlash kerak. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan korxonalar yoki fuqarolar uchun qat'iy belgilangan narxlarning joriy etilishi zarur foyda keltirmayotganligi aniqlansa, turli xil nizolar kelib chiqishi mumkin. Bu holatda davlat hokimiyati organlarining vazifasi ushbu mumkin bo'lgan nizolarni aniqlash va belgilangan narxlar joriy etilishidan oldin ularning oldini olishdir;

3. ma'lum vaqt (minimal yoki maksimal) uchun mumkin bo'lgan narx o'sishi chegarasini belgilash. Tanqis tovarlar narxining nazoratsiz va tez o'sishi, ularni ishlab chiqarish ko'lamini oshirishga tezda erishib bo'lmaydigan sharoitda sotuvchilarda sotish hajmini oshirmasdan olingan foyda miqdorini oshirish istagi paydo bo'ladi. Oxir oqibat, bu ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, taqchillikning o'sishiga olib keladi va narxlarning yanada oshishini keltirib chiqaradi.

Muayyan vaqt uchun narxlarning o'sish chegaralarini bevosita davlat tomonidan tartiblash bunday jarayonlarning oldini olishi mumkin;

4. Rentabellik chegaralarini belgilash. Rentabellikning chegara normasini belgilash orqali davlat mahsulot birligini sotishdan olinadigan foydani cheklaydi. Davlat tomonidan tartiblashning bu turi monopolist korxonalar mahsulotlariga narxlarni belgilashda qo'llaniladi.

5. Ta'minot, yetkazib berish va savdo ustamalarining maksimal hajmini belgilash. Mahalliy hokimiyat organlariga tegishli hududda ta'minot, yetkazib berish va savdo ustamalarining eng yuqori darajalarini belgilashga ruxsat etiladi. Ushbu ustamalarning maksimal darajasini belgilash to'g'risidagi qaror tegishli hududda sotiladigan barcha mahsulotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin;

6. Narxlar deklaratsiyasi davlat organlariga kutilayotgan narxlar ma'lumotini (deklaratsiyasini) taqdim etishni nazarda tutadi. Bunday deklaratsiya ko'ngilli xarakterga ega. Agar narxlarni e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, u holda tegishli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi barcha ishlab chiqaruvchilar tijorat sirlarini nazarda tutmagan holda, bunday deklaratsiyalarni taqdim etishlari mumkin bo'ladi;

7. narxlar paritetini belgilash, ya'ni ayrim tovarlar narxlarining o'zgarishi boshqa tovarlarning tegishli o'zgarishiga olib kelganda o'zaro bog'liq narxlarni belgilash;

8. tavsiya etilgan narxlarni belgilash. Tavsiya etilgan narx darajalari ba'zan eng muhim mahsulot turlari uchun belgilanadi. Tovarlarning haqiqiy narxi tavsiya etilgan darajadan oshib ketishi mumkin. Biroq, tovarlarni tavsiya etilgan narxdan yuqori narxda sotishdan olingan foyda, qoida tariqasida, progressiv soliqqa tortiladi.

Narxlarni bilvosita tartiblash - bozorda mahsulot ta'minotini kengaytirish, bozor talabini oshirish, daromadlarni boshqarish va soliqni tartiblashga yordam beradigan usullar va vositalarning kombinatsiyasidan foydalanish orqali ta'minlanadigan narx belgilashga aralashuvdir. Bilvosita tartiblash - bu narxlarning o'zini emas, balki ularga ta'sir qiluvchi omillarni tartiblashdir. U foizlarning diskont stavkasi, soliqlar, subsidiyalar, daromadlar, valyuta kursi, eksport-import bojlari va kvotalari yordamida

amalga oshiriladi.

Narxlarni bilvosita davlat tomonidan tartiblash usullariga quyidagilar kiradi: 1. davlat xaridlari; 2. soliqlar va soliq stavkalarini belgilash; 3. pul muomalasi va kreditni tartiblash; 4. davlat xarajatlarini tartiblash; 5. davlat investitsiya siyosati; 6. amortizatsiya normalarini belgilash; 7. valyuta kursini tartiblash.

Tayanch iboralar:

narx, narxning vazifalari, narxning turlari, narxning regulyatorlik vazifasi, davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari, davlat narx siyosatini amalga oshirishning vositalari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Narxning iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Narxning qanday asosiy vazifalarini bilasiz?
3. Narxning qanday turlari bor deb o'ylaysiz?
4. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning qanday usullari keng tarqalgan?
5. Davlat narx siyosatini amalga oshirishda qanday vositalardan foydalanadi?

8-mavzu. Pul-kredit siyosati vositalari.

1. Pul va monetar siyosat
2. Kredit munosabatlari va kredit turlari
3. Pul-kredit siyosati vositalari
4. Yagona pul-kredit siyosatini amalga oshirishda banklarning o'rni

Pul va monetar siyosat

Pul — bu barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti rolini bajarishi mumkin boʻlgan maxsus tovar hisoblanadi³⁷. Pulning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun uning vazifalarini keltiramiz:

- 1) pulning qiymat o'lchovi vazifasi;
- 2) pulning muomala vositasi vazifasi;
- 3) pulning boylik to'plash vositasi vazifasi;
- 4) pulning to'lov vositasi vazifasi³⁸.

Tovarning almashinuv qiymatining pulda ifodalanishi bu tovarning narxi hisoblanadi. Tovarning almashinuv qiymatini aniqlash uchun muayyan miqdordagi pul hajmini birlik sifatida qilib olish zarur. Pul muomaladan chiqsa boylik to'plash vazifasini bajarishga o'tishi mumkin. Natural xo'jalikda boylik to'plash mahsulotni moddiy shaklda jam'garishni o'zida aks ettirgan. Tovar xo'jaligining paydo bo'lib rivojlanishi boylik to'plashda pul bilan bog'liq shaklni keltirib chiqargan. Tovarlarining to'lovi kechiktirilganda, pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi³⁹.

Mamlakatlar pul tizimining eng asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

- milliy pul birligi (so'm, yuan, funt sterling, dollar, iena, yevro va h.k.);
- naqd pul muomalasiga to'lov vositasi sifatida xizmat qiluvchi qo'goz, metal, kredit pullar tizimi;
- pul emissiyasi tizimi, ya'ni qonuniy belgilangan tartiblarda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- pul muomalasiga javobgar bo'lgan davlat organlari.

Pulning o'z vazifasini bajarish jarayonidagi to'xtovsiz aylanishi pul muomalasi deyiladi. Pul muomalasi naqd pullar va kredit pullardan iborat bo'ladi. Naqd pul muomalasi bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qilishini nazardatutadi.

³⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 131 bet

³⁸ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 133 bet

³⁹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 134 bet

Naqdsiz pul muomalasi cheklar, kredit kartochkalari, to'lov talabnomalari, veksellar, akkreditivlar kabilar yordamida amalga oshirilishi mumkin⁴⁰.

Muomaladagi pul massasini hisoblash uchun $M_0 \dots M_n$ “pul agregatlari” yoki “tarkibiy qismlari” tushunchasi ishlatiladi. Pul massasining alohida olingan tarkibiy qismlari o'zining likvidligi (ya'ni, pulning darhol to'lovga, naqd pulga aylana olish qobiliyati) darajasiga ko'ra farqlanadi. Barcha pul agregatlari yi'gindisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifiga teng bo'ladi⁴¹.

O'zbekistonda umumiy pul massasi quyidagi pul agregatlari asosida hisobga olinadi⁴²:

M_0 — muomalada bo'lgan naqd pullar (qo'goz pullar va metall pullar);

$M_1 = M_0 +$ aholining joriy hisob-varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarining hisob-kitob raqamlaridagi pullari qoldig'i, banklarda bo'lgan va talab qilib olgungacha bo'lgan shartlardagi omonatlar;

$M_2 = M_1 +$ tijorat banklarida saqlanadigan muddatli omonatlar va turli jam'garma hisob-varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar.

$M_3 = M_2 +$ bank sertifikatlari + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Pul taklifi — bu bozorga pul sifatida muomalaga chiqarilgan turli xil moliyaviy resurslar, ya'ni barcha pul agregatlari yi'gindisiga teng bo'lishi mumkin. Mamlakatda pul taklifi, asosan, emission bank, ya'ni Markaziy banki tomonidan tartibga solinsa-da, ammo iqtisodiyotdagi pul taklifining barchasini ololmaydi. Chunki bu jarayonda korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklari hatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosatini ham inobatga olish kerak bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mamlakatning rivojlanish darajasi, iqtisodiyotdagi joriy vaziyat, mamlakat oldidagi turgan strategik rivojlantirish konsepsiyasiga mos ravishda

⁴⁰ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 134 bet

⁴¹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 609 bet

⁴² B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 609 bet

yumshoq monetar va qattiq monetar siyosatlari yuritilishi mumkin. Mamlakatda monetar siyosatni yuritishda asosiy mas'uliyat Markaziy banklar zimmasida bo'ladi. Yumshoq monetar siyosat — bu Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotga qo'shimcha stimuly berish maqsadida pul massasini oshirishga qaratilgan siyosat bo'lib, asosan asosiy foiz stavkasini pasaytirish orqali amalga oshiriladi. Ko'plab davlatlar inqiroz arafasida foiz stavkalarini tushirish orqali iqtisodiyotga stimuly berishni maqsad qiladi. Nisbatan qattiq monetar siyosat esa yuqori inflyatsiyaga qarshi kurash maqsadida yuritiladigan siyosat bo'lib, asosiy foiz stavkasining oshirilishi hamda inflyatsiya darajasi bilan asosiy foiz stavkasi o'rtasida ma'lum darajada ijobiy farqni saqlab turishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, Markaziy bank yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish hamda iqtisodiyotni «sovutish» maqsadida asosiy foiz stavkasini inflyatsiyadan bir muncha yuqori darajada ushlab turiladi.

Kredit munosabatlari va kredit turlari

Kredit deganda bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga ehtiyoji bor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lum maqsadlar uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish sharti bilan qarzga berish munosabatlarini tushinamiz. Kapitalning pul shakli ssuda kapitali deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini izohlab beradi.

Kredit munosabatlarida ikki sub'ekt ishtirok etadi, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi.

Ssuda kapitali, ya'ni kredit resurslarining paydo bo'lish manbalari asosan quyidagilar:

- korxonalar va tashkilotlarning amortizatsiya ajratmalari;
- mahsulot sotishdan olingan tushumlar;
- korxonalaridagi ishlab chiqarishni, fan va texnikani rivojlantirish jamg'armalari, moddiy ra'gbatlantirish jamg'armalari;
- korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyati foydasi;

- bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;
- aholining bo'sh turgan pul mablag`lari.

Kredit berish quyidagi tamoyillarni nazarda tutadi⁴³:

- maqsadlilik;
- qaytarishlilik;
- ta'minlanganlik;
- to'lovlilik.

Kreditning bir qancha vazifalarni bajaradi:

1. Qayta taqsimlash vazifasi. Kredit yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag`lari ssuda fondi shaklida jamlanadi, to'plangan mablag`lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyotga ehtiyojlarga mos holda qayta taqsimlanadi;
2. Rag'batlantirish. Qarz oluvchi butun summani foizlar bilan birga qaytarish majburiyatini oladi, bu qarz oluvchini yanada serharakat bo'lishga undaydi. Odamlar olgan pullarini samaraliroq boshqarishadi va keraksiz xarajatlarni kamaytirishadi;
3. Ijtimoiy. Banklar ta'lim kreditlari berishni taklif qiladi, bu dasturlarning bir qismi qisman yoki to'liq davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi;
4. Iqtisodiyotni tartiblashdir. Bunda kredit foizi stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Kredit turli shakllarda amalga oshiriladi. Har qancha salbiy qiyofa namoyon qilmasin, ammo baribir kreditning dastlabki va tarixiy shakli sudxo'rlik kreditidir.

Hozirgi vaqtda bank krediti, xo'jaliklararo kredit, tijorat krediti, davlat krediti, iste'mol krediti va xalqaro kredit kabi shakllardan ko'p foydalaniladi.

⁴³ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 623 bet

Bank krediti — pul egalari hisoblangan banklar va nobank kredit muassasalari tomonidan qarzni oluvchilarga ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Tovar muomalasidan tortib toki kapital jam'garilishigacha bo'lgan barcha sohalarda ishlatili mumkin⁴⁴.

Xo'jaliklararo kredit — ayrim korxonalar, tashkilot tomonidan boshqasiga beriluvchi kredit hisoblanadi⁴⁵.

Tijorat krediti — xo'jalik yurituvchi turli korxonalar, tashkilotlarning bir-biriga beradigan kreditidir. Tijorat kreditining eng keng tarqalgan shakli — bu to'lovni kechiktirish sharti bilan tovarni berishdir⁴⁶.

Iste'mol krediti — jismoniy shaxslarga, avvalambor, iste'mol tovarlari (maishiy texnikalar, mebel, avtomobil va h.k.) xaridi uchun beriladigan kredit. Boshqa kredit shakllari ichida iste'mol kreditlarining foizlari ancha yuqori bo'ladi⁴⁷.

Ipoteka krediti — kochmas mulk ob'ektlarini xarid qilishda uzoq muddatga beriluvchi kredit⁴⁸.

Davlat krediti — aholi va tadbirkorlik subyektlaridan davlatga pul mablag'larining ko'chib o'tishi bilan bog'liq kredit shakli. Budget taqchilligini qoplash maqsadida foydalanish ko'proq uchraydi⁴⁹.

Xalqaro kredit — ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati orqali yuzaga keladigan kredit shakli. Xalqaro kreditning tovar yoki pul (valyuta) shakllari uchraydi⁵⁰.

Kredit munosabatlarining murakkablashuvi natijasida oxirgi paytlarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeyting, trast kabi yangi shakllari ham keng tarqalmoqda.

Lizing — pulsiz kredit shakli, odatda, ishlab chiqarish vositalari, boshqa moddiyliklarni foydalanuvchilar tomonidan keyinchalik muntazam haq to'lab borish,

⁴⁴ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁴⁵ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁴⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁴⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁴⁸ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁴⁹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

⁵⁰ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 638 bet

oldindan ma`lum bo`lgan muddatlarda sotib olish shartlari bilan uzoq muddatli ijaraga berishdir. Odatda, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchilar bevosita xarid qiluvchilarga to`g`ridan-to`g`ri emas, balki lizing tashkilotlari vositachiligida ijaraga beradilar⁵¹.

Factoring — bu bozorning boshqa subyektlari qarz majburiyatlarini sotib olish yoki sotib yuborish munosabatlaridir. Odatda banklar turli korxonalarining debitorlik qarzlarni (ya`ni qarzdorlik majburiyatlarini) o`zi uchun manfaatlar shartlarda sotib olib, keyin esa ushbu qarzlarni qarzdorlardan undirib oladi⁵².

Forfeyting — yuqorida keltirilgan faktoringli munosabatlarning uzoq muddatli shakli hisoblanadi. Banklar qarzdorlik majburiyatlarini o`z bo`yniga olgandan uni undirishga uzoq vaqt sarflaydi⁵³.

Trast — bu moliya-kredit tashkiloti mijozlarining kapitallarini ishonch asosida boshqarish bo`yicha munosabatlarni aks ettiradi⁵⁴.

Pul-kredit siyosati vositalari

Mamlakatimizda pul-kredit siyosatining eng ustivor yo`nalishi barqaror pul muomalasini ta`minlash, kredit va naqd pul emissiyasi, jami pul massasining asossiz o`lishining oldini olish bo`lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotini tartiblashda pul-kredit siyosatining bir qator zamonaviy mexanizmlari va vositalari keng qo`llanmoqda. Masalan, amaliyotda yalpi pul talabi va yalpi pul taklifini, xususan, pul massasining, moliya bozorlarining hamda bank tizimining likvidliligini samarali tartiblashda 1) ochiq bozor operatsiyalari, 2) hisob stavkasi siyosati, 3) majburiy zaxiralar normasi siyosati, 4) valyuta siyosati kabilar keng qo`llaniladi⁵⁵. “O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki to`grisida”gi Qonunda keltirilshicha, monetar siyosatda ochiq bozor operatsiyalari; Markaziy bank

⁵¹ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

⁵² B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

⁵³ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

⁵⁴ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

⁵⁵ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

hisob operatsiyalari; Markaziy bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari; majburiy zaxira talablari va Markaziy bank qayta moliyaviy ta'minlash kabi vositalar keltirilgan⁵⁶.

Pul-kredit siyosati vositalari ma'muriy va iqtisodiy vositalarga bo'linadi.

Ma'muriy vositalarga - foiz stavkalarini tartiblash, maqsadli kreditlar, banklar uchun kreditning yuqori chegaralarini belgilash kabi usullar va choralar kiradi. Ular bir qator kamchiliklarga ham ega, masalan, yuqorida aytilganlar alohida tijorat banklariga nisbatan qo'llaniladigan yakka tartibdagi choralar bo'lib, moliya bozoridagi raqobatni bo'g'ib qo'yishi, moliyaviy sohaning rivojlanishini susaytirishi va banklarning vositachilik rolini pasaytirishi ham mumkin. Shuningdek, alohida olingan banklar ustidan nazoratning o'rnatilishi oqibatida o'z navbatida alohida olingan tarmoq va hududlarda kreditlash samarasi pasayadi, katta miqdordagi moliyaviy mablag'larning yashirin iqtisodga yoki xorijiy bozorlarga chiqib ketishini keltirib chiqarishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining iqtisodiy vositalariga - ochiq bozor operatsiyalari (davlat va Markaziy bankka tegishli qimmatli qo'gozlarni birlamchi bozorlarda sotish), ikkilamchi bozor operatsiyalari (bevosita oldi-sotdi operatsiyalari), qayta moliyalashtirish siyosati, majburiy zahiralash talablari, valyuta siyosati, kredit kimoshdi auktsionlari, valyutaviy svoplar, veksellarni hisobga olish, lombard va overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Pul-kredit siyosatining iqtisodiy vositalarining bir qator afzallik tomonlari bor, masalan, Markaziy bank uchun pul massasi, moliya bozorlarini samarali tartiblash, pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish, pul-kredit siyosati orqali boshqarish jarayonlariga davlat aralashuvini kamaytirish, moliya bozorlarining rivojlanishi va kengayishi, banklarning vositachilik rolining oshirilishiga, sarmoyalar va moliyaviy jam'garmalar hajmini ko'paytirishga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Pul-kredit siyosati vositalari

⁵⁶ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 639 bet

Ma'muriy vositalar	Iqtisodiy vositalar
Foiz stavkalarini chegaralash	Ochiq bozordagi operatsiyalar
Maqsadli kreditlar	Majburiy zaxiralar
Har bir bank uchun kreditlash miqdorini belgilash	Veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi
Har bir bank uchun hisobga olish me'yorlarini belgilash va boshqalar	Qisqa muddatli depozitlar mexanizmi
	Kredit auktsionlari
	Lombard va overdraft mexanizmlari
	Valyuta svoplari va bevosita oldi-sotdi operatsiyalari

Yagona pul-kredit siyosatini amalga oshirishda banklarning o'rnini

Banklar pul resurslarini jamlash, joylashtirish va ularning harakatini boshqarish bilan shu'gullanuvchi moliyaviy muassasa hisoblanadi. Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo'lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. O'zbekistonda bank tizimi, ikki darajali bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat banklarning (shuningdek, bank faoliyatini yurituvchi nobank muassasalarining) keng tarmog'ini o'z ichiga qamrab oladi.

Hukumat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan holda tartibda soladi va davlatning yagona pul-kredit siyosatini amalga oshiradi. Markaziy bankga davlat banki, hukumat banki, banklar banki degan asosli ta'riflar beriladi va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) davlatning monetar siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- 2) iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi;
- 3) milliy valyuta muomalasini tartibga keltiradi;
- 4) xalqaro valyuta bozorlarida valyutalar bilan operatsiyalar amalga oshiradi;
- 5) mamlakat nomidan rasmiy oltin-valyuta zaxiralarni saqlash vazifasini bajaradi;

- 6) pul taklifi ustidan nazorat qiladi;
- 7) boshqa banklar faoliyatini uy'gunlashtiradi va boshqa banklar ustidan nazorat qiladi;
- 8) boshqa banklarning majburiy zaxiralarini saqlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar va tashkilotlar teng sheriklar sifatida hamkorlik qilishadi. Kredit ajratishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtiruvchi, ishlab chiqarish rivojlanishining yangi darajaga chiqishini ta'minlovchi tadbirlar va loyihalarga ustivorlik beriladi.

Tijorat banklar ixtisoslashuviga investitsion va ipoteka banklarini misol keltirish mumkin⁵⁷.

Tayanch iboralar:

Pul, pul muomalasi qonuni, pulga talab va pul taklifi, kredit, kredit turlari, banklarning asosiy vazifalari, pul-kredit siyosati vositalari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pul qanday vazifalarni bajaradi?
2. Pul muomalasi qonuni nimani izohlab beradi?
3. Davlat iqtisodiyotni tartiblashda pulga bo'lgan talab va pul taklifidan qanday foydalanadi?
4. Kreditning turlarini sanab bering
5. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda banklarning o'rnini qanday baholaysiz?
6. Pul-kredit siyosatining qanday vositalari va yo'nalishlarini bilasiz?

9-mavzu. Soliq-byudjet siyosati

1. Soliqlar va iqtisodiy o'sish.

⁵⁷ B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 626 bet

2. Soliq imtiyozlarining asosiy ko'rinishlari

3. Davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi

4. Davlatning byudjet siyosati

Soliqlar va iqtisodiy o'sish

Soliq - davlatning moliyaviy vazifalarini yopish uchun davlat organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy ravishda undiriladigan to'lovlardir. ⁵⁸ Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat byudjetini shakllantirish uchun yalpi daromadning ma'lum bir qismini bevosita olib qo'yishdan iborat. Moliyaviy funktsiyadan tashqari soliq tizimi mamlakatning jamiyatga iqtisodiy ta'siri, uning rivojlanishi va samaradorligi uchun zarurdir.

Shuningdek, soliqlar quyidagi vazifalarning bajarilishiga sharoit yaratadi:

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- umumiy soliq yukini muntazam ravishda kamaytirish;
- soliqni tartiblashning sezilarli darajada yaxshilanishi;
- inflyatsiya darajasining pasayishi. ⁵⁹

Soliq elementlari soliqqa tortishning butun tizimini tashkil qilish va amalga oshirish imkonini beradi. Soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq to'lovchi;
- soliq solinadigan baza;
- soliq stavkasi;
- soliq birligi;
- hisoblash tartibi;

⁵⁸ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

⁵⁹ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

- soliq imtiyozlari;
- soliq manbai;
- soliq ish haqi;
- soliqqa tortish davri;
- to'lov muddati;
- to'lov tartibi.

Har qanday davlatning milliy iqtisodiyotida soliq to'lovlari turli funktsiyalarni bajaradi: tartiblash, fiskal, ijtimoiy, taqsimlash, nazorat qilish.

Soliqlar va ularning hajmi davlat byudjeti xarajatlariga bo'g'liq bo'lib, byudjet daromad qismining 90 foizdan ortiqroq qismini tashkil qiladi. Iqtisodiy siyosatning quroli sifatida soliqlar bir tomondan, davlat daromadlari manbai, ikkinchi tomondan, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning moliyaviy tartibga soluvchisi sifatida ikki tomonlama rol o'ynaydi.⁶⁰

Soliq stavkasining o'zgarishi jamiyatda va iqtisodiyotning barcha moliyaviy tarmoqlarida sodir bo'layotgan muayyan jarayonlarni rag'batlantirishi yoki aksincha, sekinlashtirishi mumkin. Asosiy to'g'ridan-to'g'ri soliqlardan biri bo'lib, uning hisobidan davlat byudjeti soliq tushumlarining etarli ulushi shakllantiriladi - daromad solig'i. U shaxsiy daromadlarni soliqqa tortish tizimida asosiy rol o'ynaydi. Daromad solig'i soliq to'lovchilar tomonidan o'z daromadlaridan tegishli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda davlat byudjetiga to'lanadigan to'g'ridan-to'g'ri soliqdir. Boshqa soliqlar singari, har qanday mamlakatda daromad solig'i iqtisodiy dastak bo'lib, u orqali davlat, bir tomondan, aholining real daromadlari darajasiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, byudjetning daromad qismini tashkil qiladi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda daromad solig'ini undirishning maqsadlari va asosiy tamoyillari o'xshash, ammo farqlari ham mavjud.

⁶⁰ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

Soliq imtiyozlarining asosiy ko'rinishlari

Turli ko'rinishdagi va shakldagi soliq imtiyozlari bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartiblashning muhim shakli hisoblanadi. Soliq imtiyozlaridan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish, tadbirkorlikni o`stirish, investitsiyalarni, xorijiy kapitalni jalb qilish, pul va moddiy resurslarni iqtisod qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish samaradorligini oshirish va mehnat bilan band bo`lishni oshirishni ragbatlantirish vositasi sifatida foydalaniladi.⁶¹

Barcha soliq imtiyozlari 3 asosiy kengaytirilgan guruhga bo'linadi: soliqlardan ozod qilish, soliq chegirmalari va soliq kreditlari.

Soliq imtiyozlarining soliqlardan ozod qilish deb nomlanuvchi birinchi guruhiga quyidagilar kiradi:

- > soliqlardan kechish;
- > to'lovchilarning ayrim toifalarini soliqdan to'liq ozod qilish;
- > ilgari to'langan soliqlarni qaytarish;
- > soliq ta'tillari;
- > soliq stavkalarini pasaytirish;
- > soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalangan guruhini shakllantirish;
- > soliq investitsiya mukofoti.

Ikkinchi guruh, soliq chegirmalari - bu, qoida tariqasida, ularga bo'lgan huquqlarni olish uchun turli shartlar ostida murakkabroq tartibdagi soliq imtiyozlari guruhi:

- > soliq ob'ektining soliqqa tortilmaydigan minimumi;
- > soliqlardan umumiy chegirmalar;
- > soliqlardan investitsion chegirmalar;

⁶¹ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

> tezlantirilgan amortizatsiya mexanizmi.

Uchinchi guruh soliq kreditlari deyiladi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

> soliq solinadigan bazani qisman kamaytirish yoki chegirib tashlash;

> bir yoki bir nechta soliqlarni kechiktirish yoki bo'lib to'lash;

> umumiy soliq krediti;

> investitsion soliq krediti.

Davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi

Davlat byudjeti jamiyat iqtisodiy munosabatlarining ayrim qismlarini manoyon qilib davlat darajasidagi daromadlarning shakllanishi va ulardan foydalanish o'z ichiga qamrab oladi. Soliqlar, zayomlar va boshqalar manbalar asosida davlat byudjeti daromadlarining shakllantirish orqali yirik moliyaviy resurslar to'planadi. To'plangan va turli maqsadlarga sarflashga mo'ljallangan resurslarning umumiy hajmi davlat byudjeti xarajatlarining YalMga nisbatida o'z aksini topishi mumkin. Masalan, 2022 yil natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari YalM ga nisbatan 23,8% ni tashkil etgan.⁶²

Bu ko'rsatkich davlat byudjeti iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishida muhim vosita ekanligidan dalolat beradi. Byudjet resurslaridan foydalanish orqali moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasida, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida, hududiy birliklar va aholini ijtimoiy guruhlari o'rtasida milliy daromadni qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi.⁶³ Davlat byudjet makroiqtisodiy muvozanatga erishish va ushbu muvozanatni saqlab turishda muhim dastak bo'lib hisoblanadi. Eng asosiysi iste'mol va jam'garish jarayonlari o'rtasidagi zarur nisbatlarni saqlab qolishda davlat byudjetining roli beqiyosdir.

⁶² <https://review.uz/uz/post/gosbyudjet-na-2022-god-analiz-osnovnx-pokazateley>

⁶³ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

Byudjetga Ijtimoiy-iqtisodiy o`shishni qo`llab-quvvatlash vositasi, ishlab chiqarish kuchlarining o`shishiga va ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiy topishiga ta'sir etuvchi vosita sifatida qaraladi. Masalan, byudjet resurslari ITTKI bilan bir qator transport va informatsion tuzilmani yaratishga, hamda aholining ma'lumot darajasini oshirishga yonaltiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarkibiy-tuzilmaviy takomillashtirishda byudjet tizimi muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi uning takror ishlab chiqarish mutanosibligini ta'minlash, iqtisodiy siyosatning muhim vazifalarini ado etishdagi o'rni haqida tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Davlatning byudjet siyosati.

Fiskal siyosatda budjet xarajatlarini qisqartirish yo`lidan borish qisqa muddatda o`shish tempini biroz sekinlashtirishi mumkin — yuqorida guvohi bo`lganimizdek, budjet xarajatlari hozirgi kunda YAIMning katta qismini tashkil etadi. Biroq, budjet xarajatlarini qisqartirish, birinchidan, qaror qabul qiluvchilarni tashvishga solayotgan tashqi savdo defitsitining qisqarishiga sabab bo`lsa, ikkinchidan, inflyatsiyaning maqsadli ko`rsatkichiga tezroq erishishga ham zamin yaratishi shubhasiz.

Qolaversa, nisbatan qattiq monetar siyosatni ushlab turish yaqin kelajakda moliyaviy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan manfaatliroq ekanligi hisobga olinsa, budjet xarajatlarini imkon qadar qisqartirish tashqi savdoning muvozanat nuqtaga tomon siljishini ta'minlashda eng optimal yechimlardan biri bo`lishi mumkin. Masalan, manzilliligi so`roq ostida bo`lgan va samarasiz ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish bu borada dadil qadam bo`ladi. Sababi, bu singari loyihalar qisqa muddatda ijtimoiy kayfiyatning yaxshilanishigagina xizmat qilishi, aholining zaif qatlami turmush farovonligi oshgandek va barqarorlik o`rnatilgandek illyuziya hosil qilishi mumkin, biroq yakunda aholi zaif qatlamining kambag'allikdan qutilishi yoki mamlakatda uzoq muddatli barqarorlikka olib kelmaydi.

Umuman, samarasiz budjet xarajatlaridan tiyilishning boshqa vositalari ham topiladi, buning uchun qaror qabul qiluvchilarning irodasi zarur, xolos.

Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, qaror qabul qiluvchilar tashqi savdo defitsitini qisqartirishni istasa, birinchi navbatda fiskal xarajatlarni kamaytirish yoʻlidan borish maqsadga muvofiq. Zero, hozirgi vaqtda monetar siyosatning yoʻnalishini oʻzgartirish qimmatga tushishi va koʻplab insonlar uchun ogʻir kechishi shubhasiz. Sababi ragʻbatlantiruvchi monetar siyosat inflyatsiyaning yanada tezlashishiga zamin yaratadi. Yuqori inflyatsiya esa moliyaviy barqarorlikka putur yetkazish bilan bir qatorda, aholining zaif qatlami uchun qoʻshimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Fiskal siyosatda budjet xarajatlarini qisqartirish yoʻlidan borish qisqa muddatda oʻsish tempini biroz sekinlashtirishi mumkin — yuqorida guvohi boʻlganimizdek, budjet xarajatlari hozirgi kunda YAIMning katta qismini tashkil etadi. Biroq, budjet xarajatlarini qisqartirish, birinchidan, qaror qabul qiluvchilarni tashvishga solayotgan tashqi savdo defitsitining qisqarishiga sabab boʻlsa, ikkinchidan, inflyatsiyaning maqsadli koʻrsatkichiga tezroq erishishga ham zamin yaratishi shubhasiz.

Tayanch iboralar:

Soliqlar, soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida, soliq imtiyozlari, davlat byudjeti, davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi, davlatning byudjet siyosati.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Soliqlar nima?
2. Soliqlardan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish mumkinmi?

3. Soliqlardan qanday imtiyozlar bor?
4. Davlat byudjeti qanday tartibga soluvchilik vazifalarini bajaradi?
5. Davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Sizning fikringizcha davlatning byudjet siyosati nimalarni o'zida qamrab olishi kerak?

10-mavzu. Davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati

- 1. Jamiyat ijtimoiy sohasining mohiyati va ijtimoiy rivojlanishda roli**
- 2. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartiblashning shakllari, usullari**
- 3. Aholi farovonligi, aholi turmush darajasi**
- 4. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash**

Jamiyatning ijtimoiy sohasining mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli.

Jamiyat to'rtta asosiy sohadan iborat: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy. Ularning har biri o'z vazifalariga ega.

Ijtimoiy soha - bu odamlarning turmush tarzi va darajasini, ularning farovonligini, iste'molini belgilaydigan uzaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar, korxonalar, tashkilotlar majmuidir. Ijtimoiy soha inson hayotining butun makonini - uning mehnati va hayoti, sog'lig'i va dam olish sharoitlaridan tortib, ijtimoiy sinfiy va milliy munosabatlarga qamrab bo'lgan barcha sohalarini qamrab oladi.⁶⁴

Ijtimoiy sohaning bir nechta ta'riflari mavjud. Birinchi yondoshuv: Ijtimoiy soha insonning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilgan tizimdir.

Bunga quyidagilar kiradi:

Ta'lim va ta'lim muassasalari (bolalar bog'chalari, maktablar, havaskorlik guruhlar, kollejlar, universitetlar);

⁶⁴ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

Tibbiy yordam ko'rsatadigan tashkilotlar (kasalxonalar, shifoxonalar, klinikalar, tibbiy markazlar, laboratoriyalar);

Madaniyat tashkilotlari (muzeylar, saroylar va madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog'lari, sirkalar, teatrlar, konsert zallari, botanika bog'lari, galereyalar);

Sport tashkilotlari (sport klublari, futbol va xokkey ligalari, sport maktablari, seksiyalar, markazlar);

Ijtimoiy ta'minot (qariyalarga, nogironlarga, yolg'iz onalarga, ishsizlarga, doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatadigan tashkilotlar);
umumiy ovqatlanish;

Davlat g'amxo'rliqi - tuman, shahar, viloyatni iqtisodiy ta'minlash bo'yicha bir qator xizmatlar (suv kanali, shahar transporti, uy-joy kommunal xo'jaligi, elektr stansiyalari);

Yo'lovchi tashish, aloqa.

Shunday qilib, ko'plab tashkilotlar tufayli ijtimoiy hayotning ijtimoiy sohasi mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlaydi, insonning jismoniy rivojlanishi, uning sog'lig'i, ta'limi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Boshqa bir yondashuvga ko'ra, ijtimoiy soha aholining yoshi, jinsi va shaxsiy xususiyatlari bilan farq qiluvchi demografik guruhlarini ifodalaydi. Bunda jamiyatning ijtimoiy sohasiga: qariyalar, bolalar, o'smirlar, erkaklar, mehnatga layoqatli fuqarolar, ayollar, pensionerlar kiradi.

Uchinchi ta'rif yanada universal: jamiyatning ijtimoiy sohasi - bu turli xil ijtimoiy jamoalarda birlashgan odamlarning faoliyat sohasi. Bu guruhlar bir-biridan ta'lim darajasi, daromadlari, hokimiyatdan foydalanish darajasida farqlanadi. Bu sohada eng murakkab va eng ahamiyatli muammolardan biri - bu qaysi vazifalarni davlatga zimmasida qoldirish va qaysi birlarini nodavlat sektori hisoblangan xo'jalik yurituvchilar zimmasiga o'tkazish ko'proq maqsadga muvofiq bo'lishini hal qilishdir.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartiblashning shakllari, usullari

Davlat tomonidan ijtimoiy sohani tartiblashning usullari va shakllarini tanlash mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy sohada davlat va nodavlat sektorlarining o‘zaro nisbati, davlatning iqtisodiy strategiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va boshqa ko‘p sonli omillarga bo‘g‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartiblashning eng ko‘zga ko‘ringan shakllariga qonunchilik hujjatlari, soliq-budjet, pul-kredit, davlatga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sohaning bir qismini boshqarish, ya’ni ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalar va tashkilotlarni to‘gridan-to‘g‘ri boshqarish kabilardan kiradi.⁶⁵

Ko‘plab mamlakatlarda, shuningdek O‘zbekistonda ham ijtimoiy sohadagi siyosatni amalga oshirishning quyidagi shakllari ko‘p qo‘llaniladi:

- 1) Ishlovchilar uchun eng kam ish haqining darajasini, nafaqa yoshini, ish kunining davomiyligini, mehnat ta’tilining davomiyligini belgilash;
- 2) budjet xodimlari va davlat idora va tashkilotlarida band bo‘lganlar mehnatiga haq to‘lashning yagona tarif tizimini o‘rnatish;
- 3) pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorlarini o‘rnatish, turli janglar, mehnat fronti ishtirokchilari uchun imtiyozlar tizimini shakllantirish;
- 4) ijtimoiy sohalar o‘rtasida davlat budjeti xarajatlarining eng optimal nisbatlarini o‘rnatish;
- 5) aholi daromadlarini tartiblash, inflyatsiya jarayonida esa nafaqadagilar, davlat ijtimoiy sohadagi ishlovchilar daromadlarini indeksatsiyalash.

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat eng ustuvor yo‘nalishdan bo‘lganligi bois juda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aholi farovonligi, aholi turmush darajasi

Fuqarolarning umumiy farovonligiga erishish, qashshoqlikni bartaraf etish

⁶⁵ Абдуллаев, Р. А. Повышение эффективности управления аграрным потенциалом региона / Р. А. Абдуллаев // Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития : Сборник научных трудов, Симферополь, 20 ноября 2019 года / Под общей редакцией М.Н. Стефаненко. – Симферополь: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна", 2019. – С. 3-8. – EDN LRLSYZ.

zamonaviy davlatlarning rivojlanish strategiyasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir shaxs, har bir jamiyat, har bir davlat aholi farovonligiga erishish, uni yuksaltirishga intiladi.

Aholi turmush darajasining oshishi iqtisodiy rivojlanish natijasi, iste'mol talabining o'sishi omili bo'lib, tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantiradi va pirovardida butun jamiyat farovonligi darajasining oshishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda turmush darajasini moddiy va ma'naviy sohalar nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadigan yondashuv tobora rivojlanib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan, farovonlikni nafaqat insonning turmush darajasini belgilovchi miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plamini, balki uning o'z hayotining sifati bilan qoniqishini belgilovchi sifat xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilish mumkin.

Farovonlik daromad va iste'molni, davlat ijtimoiy kafolatlari va pullik xizmatlarni, ijtimoiy ta'minotni va ijtimoiy himoyani o'z tarkibiy qismlariga qamrab oladi. U farovonlik ob'ektlari, farovonlik sub'ektlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning tabiati o'rtasidagi munosabatlarda ifodalanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, bugun mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar sifatida tayyorlash, ularni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash muhim masaladir. Shu boisdan ham, Xuqumat tomonidan ta'lim tizimini zamon talabidan kelib chiqqan holda isloh qilish masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlarning boshlanishiga turtki bo'ldi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017 yildan e'tiboran mamlakat to'liq 9+3=12 yillik ta'lim tizimidan 11 yillik o'qishga o'tildi. Ko'pchilik ota-onalartomonidan bu qarorto'g'ri ekanligi e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasida 2021-2022 o'kuv yili boshiga jami umumta'lim

muassasalari soni 10289 tani tashkil etib, ulardan 6368 tasi (61,9%) qishloq joylarda, 3921 tasi (38,1%) shaharlarda joylashgan. 2017-2018 o‘kuv yiliga nisbatan umumta’lim muassasalari soni 571 taga yoki 5,9 foizga q/paydi.

Mamlakatda 2021-2022 o‘kuv yilida oliy ta’limga jami 235,8 ming nafar talaba qabul qilindi. Ushbu ko‘rsatkich 2017-2018o‘q/v yiliga nisbatan (2017-2018 o‘q/v yilida 85,7 ming nafar) 150,1 ming nafarga yoki 2,8 barobarga ortdi. O‘zbekiston Respublikasida 2021-2022 o‘q/v yili boshiga oliy ta’limda jami 808,0 ming nafar talaba tahsil olmoqsa, so‘nggi besh yilda oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarning (2017-2018 o‘quv yilida 297,7 ming nafar) umumiy soni 2,7 barobarga yoki 510,3 ming nafarga ko‘paygan.

Mamlakat 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan shifoxonalar soni 1232 tani tashkil etmoqda. Shundan 593 tasi nodavlat shifoxonalar (jamiga nisbatan 48,1 foiz). 2016 yilga nisbatan shifoxonalar soni 126 taga (2016 yilga nisbatan 11,4 foizga) ko‘paygan. O‘zbekistonda 2021 yilning 1 yanvar holatiga qo‘ra faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-polikpinika muassasalari soni jami 6032 tani tashkil etmoqda.

	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Shifoxona o‘rinlari soni: jami, <i>ming</i>	132,0	135,7	153,6	153,4	161,0
10 000 aholiga	41,1	41,6	46,6	45,2	46,6
Shifoxona o‘rinlari jami sonidan - bemor bolalar uchun o‘rinlar: jami, <i>ming</i>	26,7	26,6	27,4	27,4	28,4
10 000 bolaga (0-14 yosh)	29,1	28,5	28,9	27,8	27,9
Homilador va tug‘adiganlar uchun o‘rinlar soni: jami,	17,4	17,7	17,4	17,4	17,3
10 000 ayolga (15-49 yosh)	19,9	20,0	19,4	19,3	19,1

Ginekologik bemorlar uchun o‘rinlar soni: jami, <i>ming</i>	5,0	5,1	5,6	7,7	7,3
10 000 ayolga	3,1	3,1	3,1	2,3	4,2

2016-2021 yillar mobaynida aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasi va tarkibida ham sifat jihatidan o'zgarishlar kuzatilmoqda, eng muhim jihati shundaki, bu kabi xalq iste'moli tovarlarining aksariyati bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilmoqda. Xususan, 2021 yilda har 100 xonadonga shaxsiy kompyuterlar soni 63 donani tashkil etdi (bu ko'rsatkich 2016 yil 49 tani tashkil etgan), shu bilan birga 2016-2021 yillarda uyali aloqa vositalari bilan ta'minlanganlik soni 25,2 foizga oshdi va 2021 yil oxiriga kelib, 100 ta xonadonga 308 tani tashkil etdi. Ya'ni, har bir xonadonga o'rtacha 7 ta mobil telefon to'g'ri kelmoqda. Jumladan, aholining shaxsiy yengil avtomobillar bilan ta'minlanganlik darajasi 2021 yil yakuniga kelib, har 100 xonadonga 53 taga yetdi. Shuningdek, har bir 100 xonadonga to'g'ri kelgan televizorlar soni 170tani tashkil etmoqda. Shuningdek, sovutgich va muzlatgichlar - 114 dona, konditsionerlar - 43 dona, elektr changyutgichlar-64dona, kir yuvish mashinalari - 94dona tashkil etdi. Bundan tashqari, shaxsiy kompyuterlar, ko'chma kompyuterlar (noutbuklar, netbuklar), planshetlar hamda uyali aloqa vositalarining aholi hayotiga shiddat bilan kirib kelishi va bu vositalarning imkoniyatlari kundan- kunga kengayib borishi, aholi uchun aloqa, axborot almashish kabilar bilan bir qatorda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini ham yaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni e'tirof etish joizki, bugungi kunda odamlarning kundalik hayotida zarur tovarlar bilan bir qatorda elektr changyutgichlar, kir yuvish mashinalari, konditsionerlar, kompyuter va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi, aholining turmush darajasi oshayotganidan, shu bilan bir qatorda, tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar va xorijdan tovar import qiluvchi tashkilotlar uchun respublikada band bo'lmagan iste'mol bozorining salmoqli ulushi

mavjudligidan dalolat beradi.⁶⁶

Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining to'laqonli va uzoq muddatli barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan ijtimoiy sohadagi masalalarning qay darajada yechilganligiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining asosiy kamchiliklaridan biri bu butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy ne'matlarni yetkazaib bera olmasligidadir. Shu sababli davlat o'z aholisining ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi o'z ijtimoiy siyosatini yuritish zaruriyati mavjud.

Davlat o'zining kuchli ijtimoiy siyosati vositasida aholi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini sezilarli oshirishga, ishonchli, manzilli, ya'ni aholining aniq qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga harakat qiladi. Moddiy kam ta'minlangan aholi qatlamlarini maqsadli, ishonchli ijtimoiy muhofaza qilish uchun, avvalambor, muhtoj oilalarga subsidiyalar, mikro kreditlar ajratish, ijtimoiy muhofazaga muhtojlar uchun turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarini tashkil etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kerak bo'ladi.

Davlat soliqqa tortishdan imtiyozlar va kredit bo'yicha imtiyozlar tizimini yaratish orqali jismoniy va yuridik shaxslarning, jamoat tashkilotlari homiylik, xayriya ishlariga mabla'glar ajratishlarini ra'gbatlantirish chora-tadbirlarini iqtisodiy jihatdan manfaatli qilib qo'yishni kuchaytirishi ham mumkin.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqich, ya'ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish zarurati chinakam yetildi. Ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari butun aholiga emas, balki faqat shunday himoyaga haqiqatan ham muhtoj bo'lganlarga nisbatan qo'llanilishi lozim. Butun tizimi bir tekislik va tayyorga ayyorlik kayfiyatini tugatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu narsa ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta'minot manbalarini keskin o'zgartirishni taqozo etadi. Shunday bir

⁶⁶ <https://stat.uz/images/journalno4.pdf>

vosita zarurki, bunda aholining turmush darajasi ishonchli ravishda himoya qilingan, turli xil agʻdar-toʻntarlar va larzalar taʻsiridan kafolatlangan boʻlishi lozim.

Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbalari bilan bir vaqtda mehnat jamoalarining, jamoat tashkilotlari va xayriya tashkilotlarining ("Navroʻz", "Mahalla", "Mehr-shafqat" hamda boshqa xayriya jamgʻarmalarining) mablagʻlari faol ishga solinmogʻi kerak. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining, turli xayriya jamgʻarmalarining ham asosiy vazifasi boʻlmogʻi lozim.

Buning maʼnosi shuki, pensiya taʼminoti, talabalarga, koʻp bolali va muhtoj oilalarga haq toʻlash tizimida ularning turmush darajasi budjet vositasida va davlat kafolati yoʻli bilan ham, shuningdek, turli xayriya jamgʻarmalari, korxonalar, tashkilotlar va xoʻjaliklarning jamgʻarmalari orqali ham qoʻllab-quvvatlanishi mustahkamlab qoʻyilishi kerak.

Tayanch iboralar:

jamiyatning ijtimoiy sohasi, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartiblashning shakllari va usullari, aholi turmush darajasi, kam taʼminlangan aholini ijtimoiy himoyalash

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy sohaga nimalar kiradi?
2. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartiblashning qanday shakllari va usullarini bilasiz?
3. Aholi turmush darajasining asosiy koʻrsatkichlarini bilasizmi?
4. Kam taʼminlangan aholini ijtimoiy himoyalashning ahamiyati toʻgʻrisida soʻzlab bering

11-mavzu. Davlatning mehnat munosabatlari, bandlik va aholi daromadlari sohasidagi siyosati

Reja:

- 1. Mehnat bozori va mehnat resurslari**
- 2. Davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta'minlash**
- 3. Davlatning aholi daromadlari sohasidagi siyosati. Kambag'allikni qisqartirish.**

Mehnat bozori va mehnat resurslari

Mehnat bozori mehnat resurslarini ishchi kuchiga bo'lgan talabni va taklifni shakllantirish asosida, xo'jalik yuritish sohalari va tarmoqlari, mashg'ulot turlari va shakllari bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi vazifasini bajarishi lozim ⁶⁷. Odamlarning bir qismi ishsiz qolsa, qashshoqlar ko'payib ketadi, degan noto'g'ri tasavvurdan xalos bo'lish payti keldi. Mehnat bozori bo'lmasa, ishchi kuchi tovarga aylantirilmasa, bozor munosabatlari to'g'risidagi gap-so'zlar og'izda qolib ketadi.

Kishilarning bir qismini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, ayniqsa, yashirin ishsizlik mavjud bo'lgan, mehnat faolligini namoyon qilish imkonini bermayotan qishloq xo'jaligidagi ishdan ozod qilish zarur. Bizda xizmat ko'rsatish sohasi amalda rivojlanmagan, bu soha barcha erkin mehnat resurslarini qamrab olishi mumkin.

rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan o'rtacha yillik haqiqiy foydalanish 70% dan oshmaydi, bu esa qo'shimcha resursga va ularni modernizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lish imkonini beradi. Noqulay ob-havo sharoitida ishlab chiqarish dasturi sug'urta mablag'laridan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarishni tezda qayta yo'naltirish imkoniyatini, xom ashyo yetkazib berish, kreditlar olish uchun qo'shimcha kanallardan foydalanishni va hokazolarni ko'zda tutishi kerak. Ikkinchidan, agrar sohada Sohada aholi uchun hayotiy zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi, boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, oziq-ovqat mahsulotlariga kafolatlangan talab mavjud bo'lib, u doimiy ravishda davlat nazoratida. Shu bois davlat tomonidan strategik muhim turdagi qishloq xo'jaligi xom ashyosi va mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturi bo'lishi kerak. Uchinchidan, qishloq xo'jaligida turdosh tarmoqlarning texnologik jihatdan bog'liqligi, texnologik jarayonning etakchi bo'g'inlaridan biridagi vaziyatning o'zgarishi, qoida tariqasida, boshqa texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan tarmoqlarda adekvat reaksiyalarni keltirib chiqarishiga olib keladi. To'rtinchidan, tez buziladigan mahsulotlarning katta hajmi ishlab chiqarishni rejalashtirishda mahsulotni tez sotishni ta'minlash va / yoki ortiqcha to'ldirishni oldini olish uchun saqlash va qayta ishlash ob'ektlarining mavjudligini ham, doimiy marketing tadqiqotlarini ham hisobga olish kerakligini ko'rsatadi. Beshinchidan, qishloq xo'jaligiga xos xususiyat bu ko'p sonli ishlab chiqaruvchilarning mahsulot ishlab chiqarishi, buning natijasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining muvafaqqiyati ko'proq monopolist korxonalar, masalan, qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mashinalari va asbob-uskunalari, o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, omuxta yem va boshqalar xatti-harakatlariga bog'liq bo'lib qolishi sezilarli darajada o'sib boradi.. Binobarin, hukumat monopolist korxonalarining qishloq xo'jaligi sohasi manfaatlarini yo'lida ularning "ishtahasini" jilovlaydigan har qanday "qadam"lariga (ishlab chiqarishni qisqartirish, narxlarni oshirish va hokazo) qarshi "harakatlari"ning turli variantlarini "yo'qotishi" kerak. Oltinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy iste'molchilarining shaharlarda to'planishi va qishloq

xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining sotuv bozorlaridan geografik jihatdan uzoqda joylashganligi mahsulotni asosan vositachilar orqali sotish zaruriyatini, potentsial daromadning ma'lum ulushini yo'qotishni anglatadi. Hukumatning vazifasi tovar ishlab chiqaruvchilar va vositachilarning (ayniqsa savdo) 103 qarama-qarshi manfaatlarini optimal yechim topishdan iborat bo'lib, ularning har biri maksimal foyda olishga intiladi. Savdo zanjirining oxiridagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ko'pchiligi bozordagi biznes sheriklariga nisbatan zaif mavqega ega. Shu munosabat bilan ularning bozordagi iktidarsizligi, xuddi o'z mahsulotining oxirgi iste'molchilari kabi namoyon bo'ladi, bu o'z navbatida ularning hayotiy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, O'zbekistonda hozirgi bosqichda mamlakat mintaqalaridagi yirik chakana savdo tarmoqlari bilan qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari - mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat kerak. Ettinchidan, qishloq xo'jaligi qishloq va uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi va ekologiyasi uchun juda muhim vazifalarni bajaradi. Yerdan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari faoliyati samaradorligi bevosita qishloqlar rivojiga ta'sir qiladi. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida qishloq xo'jaligining tabiiy, geografik, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa omillar bilan bog'liq barcha xususiyatlari davlat boshqaruvining barcha darajalarida ham xalqaro daraja, ham davlat ichida, ham davlat boshqaruvida alohida e'tibor va nazoratni talab qiladi.⁸² Demak, davlat umumiy iqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan umumjamiyat manfaatlarini uchun zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimini va ustuvor yo'nalishlarini shakllantirar ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ob'yektiv qiyinchiliklari va muammolarini hal etishda ham faol ishtirok etishi zarur. Aynan qishloq xo'jaligini jadal va samarali rivojlantirish nafaqat kambag'allikni qisqartirish,

⁸² *А. С. Хакимов. Формирование и наращивание регионального инвестиционного потенциала. Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2014 № 4 (48), стр. 81*

balki agrar siyosatning barcha maqsadlari kompleksining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini va mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashi kerak.

Tayanch iboralar:

agrar soha, agrar sohani rivojlantirishning ahamiyati, agrar sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish usullari, O'zbekistonda agrar sohadagi siyosatning o'ziga xos xususiyatlari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qanday o'ziga xosliklarini bilasiz?
2. Agrar soha qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi?
3. Agrar sohani rivojlantirishning ahamiyatini qanday izohlaysiz?
4. Agrar sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishning qanday usullari to'g'risida tasavvurlaringiz bor?
5. O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan siyosatning qanday natijalaridan xabardorsiz?

15-mavzu. Davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosati va hududiy rivojlantirish istiqbollari

REJA:

- 1. Mintaqaviy iqtisodiyotning mohiyati**
- 2. Davlatning mintaqaviy siyosati tamoyillari**
- 3. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari**
- 4. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari**

Mintaqaviy iqtisodiyotning mohiyati

Mintaqaviy iqtisodiyot muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni

o'rganadi, joylashuvning ijtimoiy va iqtisodiy omillarini tadqiq etadi.⁸³ Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli mintaqaviy iqtisodiyotda ko'pgina iqtisodiy omillar chuqur tahlil etiladi va ushbu tahlillar asosida mintaqaviy iqtisodiyot fani ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlarini belgilaydi.

Iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi milliy iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Bugungi kunda mintaqaviy siyosatning yana bir muhim vazifalaridan biri - mintaqalararo iqtisodiy integratsiya va mintaqalardagi mehnat taqsimotining takomillashuvi hisoblanadi. Mintaqaviy rivojlanishdagi eng muhim vazifalardan yana biri - turli hududlar aholisi turmush farovonligidagi tabaqalanishlarni bartaraf etishdir. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi sust bo'lgan hududlarni o'stirish bo'yicha tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish maskanlarini tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

Davlatning mintaqaviy siyosati tamoyillari

Mintaqaviy siyosat deganda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini davlat tomonidan tartiblanishi tushiniladi.⁸⁴ Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish evaziga mamlakatdagi hududlarning Ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini imkoni boricha o'zaro yaqinlashtirish,⁸⁵ aholi qatlamlari o'rtasida ne'matlar taqsimotidagi hududiy farqlanishlarni minimallashtirish, davlatning chuqur boshqaruv vazifalarini kamaytirish, mahalliy hokimiyatning va o'z-o'zini boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirishga qaratilishi lozim. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib davlatning mintaqaviy siyosatidagi asosiy tamoyillar quyidagilar, deb o'ylaymiz:

⁸³ *A. С. Хакимов.* Формирование и наращивание регионального инвестиционного потенциала. Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2014 № 4 (48), стр. 81

⁸⁴ *Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учеб. пособие.* / А. В. Владимирова, Н. И. Вильдяева, Е. А. Куделя, С. А. Лосевская - 2-е изд., испр. и доп. – Новочеркасск: 2015. – 344 с.

⁸⁵ *Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учеб. пособие.* / А. В. Владимирова, Н. И. Вильдяева, Е. А. Куделя, С. А. Лосевская - 2-е изд., испр. и доп. – Новочеркасск: 2015. – 344 с.

1. Jamiyatning o'zini-o'zi tashkil etishiga tayanish, unga o'z fikrlarini bildirmaslik. Binobarin, mintaqaviy siyosatning mazmun-mohiyati orkestrlashtirish emas, balki jamiyat sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishdir. Asosiysi, infratuzilmani rivojlantirish (keng ma'noda), shuning uchun o'z-o'zini tashkil qilish impulslari jamiyatning hududiy tuzilishidan imkon qadar tezroq o'tadi.

⁸⁶ Региональная политика России: адаптация к разнообразию: аналит. докл. / [Г.А. Сатаров и др.]; по общей редакцией Г.А. Сатарова. > М.: Фонд ИНДЕМ, 2004. > с. 25.

2. Bozor nomukammal va ijtimoiy g`o`r, uning asosiy maqsadi foyda, iqtisodiy samaradorlikdir. Shuning uchun bozor ko'pincha ijtimoiy sohada mintaqaviy nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi va kuchaytiradi. Buning ortida "tozalash", salbiy tendentsiyalarni bostirish, ijobiylarni rag'batlantirish kerak.

3. Asosiysi, jamiyat hayotining ijtimoiy tomoni, iqtisodiy faoliyat emas, chunki biznes iqtisodiyot bilan shug'ullanadi.

4. Teng bo'lmagan sharoitlarda fuqarolarning tengligi. Insonning yashash muhiti tabiiy va tarixiy sabablarga ko'ra turlicha bo'lib, u asfalt yotqizilgan yo'l bilan tekislanishi kerak - chuqur (qoloq hudud) bo'lgan joyda qalinroq va kamroq. Eng zaiflarga yordam berish mintaqaviy siyosatning "muqaddas vasiyatidir". Biroq, to'liq tekislash mumkin emas, unga intilish ham ma'nosiz, ham zararli, chunki u eng zaif hududlarni o'z-o'zini rivojlantirish uchun rag'batlardan mahrum qiladi, ularni qaramlarga aylantiradi. Juda kuchli qayta taqsimlash juda xavfli va zararli, shu jumladan. va yetakchi hududlar uchun, chunki ularni muhim resurslardan mahrum qiladi.

5. Mintaqaviy xilma-xillikka moslashish: yirik shaharlarning rivojlanishini sekinlashtirish kabi milliy shiorlarning kamayishi.

6. Murosa "joy yoki odamlar": kimga yordam berish kerak - mintaq yoki uning aholisi? Bu har qanday davlatda, ayniqsa, katta hududda qiyin ish. Mamlakatning hududiy tuzilishi aholining tanazzulga uchragan yoki borish qiyin bo'lgan hududlardan umumiy qochishiga yo'l qo'ymaslik kerak, lekin uni ortiqcha imtiyozlar bilan qoloq mintaqalarga (masalan, "shimolga") jalb qilib bo'lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda "odamlar uchun ishlash" tamoyili ustunlik qiladi.

7. Viloyat yoki respublika sub'ekt emas, balki ob'ektdir. Ularning ma'muriy chegaralari, asosan, faqat ma'muriy va boshqaruv maqsadlari uchun mo'ljallangan va umuman emas.

albatta, qandaydir ijtimoiy yaxlitlikni tuzatish. Demokratik davlatning bozor sharoitidagi faoliyati siyosiy va ma'muriy bo'lib, umumiy emas, har tomonlama emas, shuning uchun mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi va uni rayonlashtirish bir-biriga mos kelishi shart emas.

8. Subsidiarlik. Mumkin bo'lgan darajada muammoni eng quyi darajadagi hokimiyatda, imkon qadar fuqarolarga yaqinroq hal qilish kerak.

9. Usullarning adekvatligi. Rossiyada mintaqaviy siyosatning uchta tarmog'i bo'lishi kerak: iqtisodiy, siyosiy (federalizm) va madaniy (regionalizm). Har birining o'z vazifalari bor, ba'zan boshqa tarmoqlarga zid keladi (iqtisod bu borada ayniqsa "gunohkor"), shuning uchun siz ushbu turdagi siyosatlarning o'zaro vayron qilinmasligini diqqat bilan kuzatib borishingiz kerak. Iqtisodiy muammolarni iqtisodiy usullar bilan hal qilish kerak. Qayta suvga cho'mish zararli (masalan, Sovet tuzumi davrida bir necha marta sodir bo'lgan: "biz yangi kasalxonalar quramiz, birinchi navbatda kartoshka rejasini bajargan hududlarda").

10. Institutlar, hujjatlar va moliya: Mintaqaviy siyosat qonun hujjatlari shaklida rasmiylashtirilishi, uni amalga oshirish uchun institutlar va moliyaviy resurslarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

11. Cheklash choralari ("zarar bermaslik"). Ishlab chiqaruvchi kuchlar va yalpi ichki mahsulotdagi ulush sezilarli darajada kamayganiga qaramay, davlat o'z kuchi bo'yicha hali ham mamlakat ijtimoiy hayotining boshqa subyektlaridan ancha oldinda. Shuning uchun u jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatish choralarini ko'rishda, birinchi navbatda, "zarar bermang" degan mashhur tibbiy tamoyilga amal qilishi kerak. Zamonaviy davlat, asosan, jamiyat manfaatlaridan farq qiladigan maqsadlarga ega bo'lishi mumkin emas va u jamiyat hayotini (shu jumladan uning hududiy tuzilishini) haddan tashqari qattiq tartiblashga haqli emas.⁸⁷

⁸⁷ Региональная политика России: адаптация к разнообразию: аналит. докл. / [Г.А. Сатаров и др.]; по общей редакцией Г.А. Сатарова. > М.: Фонд ИНДЕМ, 2004. > с. 27

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari

Hududiy o‘shish nazariyalarida ikki xil yondashuv ajratiladi. Birinchi yondashuvda hududlarning iqtisodiy o‘shishini modellashtirish ko‘zda tutiladi. Ikkinchi yondashuv esa, korxonalar va tashkilotlarning o‘zini tutishini analiz qilishga asoslangan. Korxonalar va tashkilotlar o‘z faoliyatlarini u yoki bu hududda olib borishlarining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali tushintirib beriladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish deganda ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini eng past darajaga keltirish va ishlab chiqarishning xom-ashyoni yetkazib berishdan toki yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini tegishli hududga jamlash tushuniladi. Mamlakatning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, tabiiy resurslarning tarkibiy tuzilish salohiyatiga ko‘ra farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning resurslar, xomashyo, energiya, yoqilg‘i va iste‘molchilarga yaqinligini ta‘minlaydigan transport-logistika omili alohida ahamiyatga ega.

Ko‘plab mamlakatlarda mintaqaviy iqtisodiy siyosat kapital qo‘yilmalar qayta taqsimlanishini ta‘minlashga xizmat qiladigan 3 ta yo‘nalish doirasida olib boriladi:

Birinchi yo‘nalish – past rivojlangan va sanoat taraqqiyoti yetarli bo‘lmagan mintaqalarda infratuzilma obyektlarini qurish va ularning boshqa hududlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Garchi, bozor subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlatning asosiy vazifasi hisoblansa-da, rivojlangan mamlakatlarda davlat iqtisodiy faoliyatga bevosita aralashmaydi. Avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, elektr uzatish tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoqlarining mavjudligi hududlarda tadbirkorlikning yuksalishiga keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Ikkinchi yo‘nalish – yuksak darajada rivojlangan va taraqqiy topgan mintaqalarga, ayniqsa, yirik shaharlarga nisbatan chegaralash usullarini qo‘llash (ma‘muriy yoki iqtisodiy chegaralashlar). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalar joylashtirilishiga cheklovlar qo‘yish orqali hududiy tabaqalanishlar yumshatiladi. Aytib

o‘tilgan usul dunyoning ko‘plab mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan qo‘llanilib kelinmoqda.

Uchinchi yo‘nalish – “og‘riqli” mintaqalarga sanoatni joylashtirishni jadallashtirish uchun xorijiy va xususiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish. iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga mansub korxonalarni mazkur yo‘nalishga joylashtirishga davlat nisbatan ko‘proq e‘tibor beradi.

O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari

Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi mavjud salohiyatdan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatning barcha hududlari ijtimoiy-iqtisodiy o‘rta darajasini iloji boricha bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne‘matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishdir. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi mamlakatning alohida tizim sifatida yaxlit rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan hududiy tabaqalanishlarni bartaraf etishdan iborat.

Boshqalar kabi O‘zbekistonda ham eng “samarali” deb hisoblangan usulni topish va qo‘llash bo‘yicha muayyan vazifalar bajarilmoqda. Ko‘plab foydalanilmayotgan zaxiralarni ishga tushirishga harakat qilinmoqda, yangi korxonalarining ishlab chiqarish infrastrukturasi yaxshiroq rivojlangan kichik va o‘rtacha shaharlar yaqinida ko‘proq joylashtirilmoqda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida esa tabiiy-iqlim shart-sharoitlariga mos ekinlarni ekishga e‘tibor berilmoqda. Qishloq joylarida sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlaydigan korxonalarni tashkil qilish, ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish va izchil rivojlantirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki, respublikamizning turli hududlari o‘z maydoni, aholisi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infrastruktura obyektlari bilan ta‘minlanishi, urbanizatsiya darajasi, aholi

turmush sharoiti va boshqa jihatlariga ko‘ra bir-birlaridan keskin farq qiladi. Masalan, mamlakat ma‘muriy-hududiy birliklari o‘rtasidagi aholi zichligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to‘g‘ri kelsa (1 km² maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km² maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.

Aholi tabiiy ko‘payishida shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaharlarda aholi tabiiy ko‘payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Ohangaron, Chirchiq shaharlarida tabiiy o‘sish respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo‘yicha mamlakat ma‘muriy-hududiy birliklari orasida eng yuqori o‘rinni egallaydi. U erda 335 ming kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud hisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Tayanch iboralar:

mintaqaviy iqtisodiyot, davlatning mintaqaviy siyosatining tamoyillari, hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mintaqa iqtisodiyoti nimalarni o‘rganadi?
2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning prinsiplari, vazifalari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
3. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat davlat tomonidan qanday olib boriladi?

4. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotining o'rnini qanday baholaysiz&?
5. Hududiy mehnat taqsimotini oqilona joylashtirish deganda nimani tushinasiz?
6. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning qanday dastaklarini bilasiz?
7. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari haqida fikrlab ko'ring

16-mavzu. Tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartiblash va davlatning ekologiya sohasidagi siyosati

- 1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish va atrof muhitni saqlash**
- 2. Davlatning tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni asrab-avaylash borasidagi vazifalari**
- 3. O'zbekistonda atrof-muhitni himoyalash va tabiatdan foydalanish xususiyatlari**
- 4. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunining ahamiyati**

Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish va atrof muhitni saqlash

Atrof-muhitni asrash muammosi hozirgi zamonning global muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Yangi asrga qadam qo'yar ekan, insoniyatning oldida, dunyoni asrash, turli ekologik muammolarni bartaraf etishdekkabi dolzarb masalalar ko'ndalang turibdi va bularning barchani birdek tashvishga soladi. Global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resusrlarning taqchilligining keskin oshishi, turli kasalliklarning (ayniqsa, COVID 19 kabi epidemiologik kasalliklarning) paydo bo'lishi, yil fasllarning o'zgatib ketishi kabi salbiy oqibatlar tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurs (manba) lar deyiladi. Resurs so'zi fransuzcha bo'lib "Yashash vositasi" degan ma'noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan asosiy manbadir.

Tabiiy resurslarga: havo, suv, tuproq, turli xil rudalar, yoqilg'i va energiya manbalari ko'mir, neft, gaz, turli xil yog'ochlar hamda yovvoyi o'simliklar va hayvonlar kiradi. Bularning hammasi yer planetasida mavjud bo'lgan tabiiy resurslardir. Bundan tashqari kosmik resurslar ham mavjud. Kosmik resurslarga quyoshdan kelayotgan nur, meteoritlar va boshqalar kiradi.

Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilishni to'g'ri tushuntirish uchun ularni turlarga bo'lib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. qazilma boyliklar;
2. iqlim [resurslari](#);
3. suv va havo resurslari;
4. tuproq resurslari;
5. o'simlik resurslari;
6. fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo'lgan hamma hayvonlar) resurslari;
7. atom resurslari;
8. biosfera resurslari;
9. kosmik resurslar;

Foydalanish darajasiga qarab tabiiy resurslar:

- a) tugaydigan
- b) tugamaydiganlarga bo'linadi.

Tugaydigan resurslar. Bular o'z navbatida qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan resurslarga bo'linadi.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamaya boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo'riqlash quyidagicha bo'lmog'i lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to'g'ri, tejab, o'rnida foydalanish, [ularni qazib olish](#), tashish, qayta ishlash, ishlatishda nobudgarchilikka yo'l ko'ymaslik,

chiqindi kam chiqarish choralarini ko'rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o'rganish zarur va nihoyat ularning o'rnini bosuvchi yangi sun'iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to'la ta'minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba'zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o'rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

Qayta tiklanadigan resurslarga asosan, suv, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Masalan: tuproq, unda o'simlik o'stirib foydalanilishi natijasida tugab yo'q bo'lib ketmaydi. Tuproq shuning uchun ham tugamaydigan - qayta tiklanadigan resurslar jumlasiga kiritiladiki, madaniy o'simliklar undagi mineral ozuqa moddalar (azot, fosfor, kaliybirikmalarini va boshqalar) ni shimib oladi, ana shu ozuqa moddalar tiklab borilmasa, tuproqning unumdorligi yildan-yilga kamayib, dehqonchilik uchun butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi.

Inson foydalanadigan tabiiy resurslar tayyor holda bo'lmay balki uni inson tabiatdan oladi. Buning uchun inson ularning holatini, xossalarini, olish usullarini va ishlab chiqarishda foydalanish yo'llarini bilishi kerak. Buning uchun ma'lum malaka va o'quvga ega bo'lishi zarur. Faqat fan kishilarga, tabiat kuchlari ustidan hukmronlik o'rnatish vositalari va usullarini berish mumkin. Bu haqda ingliz olimi J.Bernal o'zining "Jamiyat tarixida fan" nomli asarida fanning tabiat kuchlarini yengishdagi muhim rolini xarakterlab "tabiatni tubdan o'zgartirmoq uchun fandan maksimal foydalanish kerak" degan edi.

Fan asosida kishilar tabiat boyliklarining o'rnini bosadigan sun'iy material yaratib, [tabiat boyligini tejaydi](#), ularni kelajak avlodlar uchun saqlaydi.

Inson o'zi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni fan asosida bevosita yoki bilvosita tabiatda mavjud bo'lgan predmet va narsalarni qayta ishlagan holda undan oladi. Fan va texnika yutuqlariga tayangan holda inson yangidan-yangi materiallarni yaratmoqda. Inson ob'ektiv xarakterga ega bo'lgan tabiat qonunlarni to'g'ri bilib olgandagina u yordamida tabiat kuchlariga aktiv ta'sir ko'rsata oladi.

Inson tabiat qonunlari haqida bilimni tabiiy fanlar - matematika, gefizika, geologiyani va x.k. ni o'rganib, uni amalga tadbiiq etish natijasida oladi. Fan asoslariga tayangan holda olimlarimiz tomonidan tabiiy resurslarni chuqur o'rganib, jamiyat manfaati yo'lida keng foydalanilayotganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Olimlar yer, suv, havo, o'simlik hamda iqlim resurslarini tadqiq qilishda va ulardan sistemali, ratsional foydalanishda muhim yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Masalan: tuproqni ishlashni yaxshilash, tuproq eroziyalariga qarshi kurash, sug'orish sistemasini takomillashtirish, madaniy o'simliklarni oziqlantirish va uni o'sishi hamda rivojlanishini jadallashtirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda planetamizdagi tabiiy resurslar har tomonlama o'rganilib, undan ratsional foydalanish va uni qo'riqlash metodlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Demak, rivojlangan jamiyatda tabiatga ongli munosabatda bo'lib, uni qo'riqlab va undan jamiyat manfaati yo'lida fan va texnika taraqqiyotiga tayangan holda ratsional foydalanilib, uni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda saqlab qolinadi. Buning uchun tabiat haqida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

Inson tabiiy resurslardan foydalanishda ko'plab iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin, u ko'pincha, tabiiy sharoitning o'zgarishi kishilarning jismoniy, psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu kadar chambarchas bog'langanki, uning biron qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlarining holatini o'zgartirib yuborishini bilmaydi. Masalan: inson faoliyati natijasida atmosferada karbonat angidrid miqdorining ortishi planeta haroratining ortishiga sabab bo'ladi. Bu [hol esa muzliklarning erishiga](#), iqlimning o'zgarishiga, suv sathi va miqdorining ortishiga, quruqliklarnin kamayishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilovchi asosiy omil moddiy boyliklardir. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish esa o'z navbatida tabiiy resurslardan foydalanish bilan

bog‘liq. Bunda ishlab chiqarish kuchlari va fanning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, inson qo‘lida tabiat kuchlaridan moddiy ne‘mat ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati shunchalik katta bo‘ladi.

Turli davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida quyidagilar asosiy rol o‘ynagan:

- 1) kishilarning onglilik darajasi;
- 2) fan;
- 3) texnika;
- 4) tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar.

Insonning iqtisodiy va madaniy talablarini qondirish borasida hozirgi zamon texnikasining taraqqiyoti endilikda jamiyatning tabiatga ta‘sirini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida inson faqat yer sirtinigina o‘zgartirib qolmasdan, uning chuqur qatlamlaridagi va okean tublari, baland tog‘ bag‘irlarini o‘rganib, ulardagi resurslardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmoqda. Inson yerning chuqurroq qatlamlaridan foydali qazilma boyliklarni olish uchun bir qancha muhim muammolarni hal qilishi zarur.

Davlatning tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni asrab-avaylash borasidagi vazifalari

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o‘rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda.

Qabul qilingan hujjatlar atrof-muhit obyektlarining ifloslanish darajasini ma'lum darajada kamaytirish, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlarning insoniy, tashkiliy va moliyaviy resurslarini milliy ekologik muammolarni hal etishga jalb qilish imkonini berdi.

Tabiat resurslari vazirligining chiqindilar bilan ishlash sohasidagi vakolatlari faqat ishlab chiqarish chiqindilarini nazorat qilish bilan cheklangan edi. Qo'mitaning amaldagi tashkiliy tuzilishi va shtatlar birligi unga yuklatilgan vazifalarni sifatli va to'liq hajmda amalga oshirish imkonini bermayapti.

Shu munosabat bilan, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, bu yo'nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorat tizimini takomillashtirish maqsadida, shuningdek, "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasini](#) "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish;

maishiy chiqindilarni to'plash, tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va ko'mish ishlarining samarali tizimini tashkil etish;

atrof-muhitning ekologik holati maqbul tarzda saqlanishini, ekologiya tizimlari, tabiiy komplekslar va alohida obyektlarni qo'riqlashni, ekologik vaziyat sog'lomlashtirilishini ta'minlash;

er, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini

muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya qilish borasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o‘simliklar ko‘paytiriladigan va saqlanadigan pitomniklar, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish;

ekologik tarbiya, targ‘ibot va ma‘rifiy ishlarni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini kuchaytirish, bu borada chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima sanksiyalari miqdorini oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunlariga keng tarqalgan foydali qazilmalarni o‘zlashtirishning belgilangan tartibini buzganligi uchun jismoniy va yuridik shaxslarni javobgarlikka tortishni kuchaytirish yuzasidan o‘zgartishlar kiritiladi.

3. O‘zbekistonda atrof-muhitni himoyalash va tabiatdan foydalanish xususiyatlari

Bozor munosabatlari shakllangan sharoitda davlatning eng asosiy vazifalaridan biri aholi soni va urbanizatsiyaning oshishi, iqtisodiyotning barqaror o‘lishini ta‘minlash talablariga to‘la mos keluvchi atrof-muhit muhofazalash muammolarini echish, ya‘ni tabiat resurslarini chuqur qayta ishlash va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish hisoblanadi. Respublikamizda quyidagi ekologik muammolar haliyam yechilmay qolmoqda:

1. Orol va Orolbo‘yi ekologik muammolari;
2. Yer-suv resurslari, biologik resurslarning qisqarib borishi;
3. Qo‘shni davlatlar ta‘sirida er, suv, biologik xilma-xillik va atmosfera havosi sifatining buzilishi;

4. Atrof-muhit holatini analiz qilish asbob uskunalari ishlab chiqarish korxonalarining mavjud emasligi;

5. Tog‘-kon sanoati chiqindilari, ulaming tutash hududlardagi holati;

6. Sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlovchi va o‘zlashtiruvchi tizimning takomillashmaganligi;

7. atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar bankining yetarli emasligi.

O‘zbekiston Respublikasida Tabiat resurslari vazirligi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi davlat organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bir qator xalqaro konventsiyalar va tegishli rivojlanish protokollari ratifikatsiyalariga qo‘shildi:

-Ozon qatlamini himoya qilish bo‘yicha Vena konventsiyasi (05/18/1993);

-Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo‘yicha Monreal protokoli (05/18/1993);

-London Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo‘yicha Monreal protokoliga o‘zgartirishlar kiritish (05/01/1998);

-Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo‘yicha Monreal protokoliga Kopengagen o‘zgartirish (05/01/1998);

-transchegaraviy suv oqimlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha BMTning YTK konventsiyasi;

-Tabiiy muhitga ta’sir etuvchi harbiy yoki boshqa dushmanona maqsadlardagi vositalaridan foydalanilishini taqiqlanishiga oid Konventsiya (05/26/1993);

-Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Asosiy konventsiya (06.20.1993) (Kyoto protokoli, 1999);

-Jiddiy qurg‘oqchilik va / yoki cho‘llanishga uchragan mamlakatlarda, ayniqsa Afrikada, cho‘llanishga qarshi kurash konventsiyasi (31.08.1995);

-Xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakatlarini nazorat qilish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha Bazel konventsiyasi (12/22/1995);

-Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konventsiya (06.05.1995 y);

-Butunjahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish konventsiyasi (22.12.1995);

-Yo‘qolib borish xavfidagi yovvoyi fauna va floraning xalqaro savdosi bo‘yicha konventsiyalar (01.07.1997);

-Ko‘chmanchi yovvoyi hayvonot turlarini saqlash konventsiyasi (05/01/1998);

-Suv-botqoq hududlari bo‘yicha asosan, qushlarning yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga molik Ramsar Konventsiyasi, (08/30/2001).

-Parijda iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi shartnoma (04/19/2018).

O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunining ahamiyati

“Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi shu sohadagi munosabatlarni tartiblashdan iborat, qonun doirasida ekologik nazorat quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

- atrof muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qonun buzilishining oldini olish, uni aniqlash va chek qo‘yish;
- atrof muhit holatini monitoring qilish, atrof muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan unumsiz foydalanilishiga olib keladigan, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan holatlarni aniqlash;
- amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyatlarning ekologik talablarga muvofiqligiga baho berish;
- barcha subyektlarning atrof muhitni asrash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquq-majburiyatlarga rioya etilishini ta’minlash;
- atrof muhitdagi o‘zgarishlar, tabiiy resurslardan foydalanish va tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida barcha manfaatdor tomonlarni xabardor qilish;
- atrof muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tijorat va notijorat

tashkilotlari hamda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash.

Ekologik nazorat bo'yicha davlat siyosati asosiy yo'nalishlari:

- ekologik nazoratni tizim sifatida shakllantirish va takomillashtirib borish;
- mamlakat aholisining hayoti va salomatligi uchun munosib atrof muhitni yaratish;

- ekologik nazorat sohasida barcha davlat va nodavlat idoralari, shuning tijoriy xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan birgalikda atrof muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishni ta'minlash borasidagi hamkorlik qilishining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- ekologiya nazorati sohasida mamlakat nomidan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekistonda yangi shart-sharoitlarda ekologik nazorat subyektlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi;

- maxsus vakolatlarga ega davlat idoralari;

- mahalliy hokimiyat organlari;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar;

- fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari;

- nodavlat va notijorat tashkilotlari;

- jismoniy shaxslar, fuqarolar.

Tayanch iboralar:

Tabiat resurslari, qayta tiklanmaydigan resurslar, qayta tiklanadigan resurslar, yerosti qazilma boyliklari, davlatning tabiatdan foydalanish sohasidagi vazifalari, ekologik nazorat, davlatning ekologik nazorati, Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tabiiy resurslardan foydanish sohasidagi davlatning tartiblash vositalariga nimalar kiradi?
2. Hozirgi kundagi dunyodagi va O‘zbekistondagi qanday ekologik muammolarni bilasiz?
3. Mamlakatimiz atrof-muhitni muhofaza bo‘yicha qanday xalqaro kelishuvlarga a‘zo bo‘lgan?
5. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda qanday omillar ko‘proq ahamiyatga ega?
6. Ekologik nazoratning asosiy vazifalarini qanday tushinasiz?
7. Ekologik nazorat sub‘ektlarini sanab bering.

17-mavzu. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartiblash siyosati

Reja

1. **Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mazmuni va zaruriyati**
2. **Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatidagi asosiy yo‘nalishlar va tarkibiy qismlar**
3. **Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblash usullari**
4. **O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari**

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mazmuni va zaruriyati

Dunyodagi mamlakatlarining rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqalarning baynalminallashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishi har bir mamlakatdan tashqi iqtisodiy salohiyatdan oqilona va unumli foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi dunyo salbiy ta’sirlaridan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti bilan chuqur integratsiyalash

uchun sifat jihatidan yangi poydevorni shakllantiradigan bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv tarzda tashqi iqtisodiy omillardan foydalanishni taqozo qiladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat — xalqaro iqtisodiy munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlatning yo'nalishi va sohasi, shuningdek, loyiq maqsad-muddaolarini amalga oshirishdagi muayyan chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi.⁸⁸ Tashqi iqtisodiy siyosat asosida tashqi iqtisodiy munosabatlarni oqilona tartiblash va xalqaro mehnat taqsimotida mamlakat ishtirokini optimallashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tashqi savdo-sotiq siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy sarmoyalarni boshqarish borasidagi siyosat, valyuta siyosati kabi tarkibiy qismlari ro'yobga chiqadi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga aloqador bo'lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko'rinishlari ham mavjud⁸⁹.

Mamlakatda tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirishning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilashda ishtirokchilarning hatti-harakatlarini iqtisodiy va huquqiy tartiblashga asosiy o'rin ajratilgan bo'lishi va umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlariga mos keluvchi tashqi iqtisodiy siyosati maqsadlarining eng muhimlari quyidagilar, deb hisoblaymiz:

- eksportni hajmini oshirish va eksportning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlari sifatini yangi bosqichga ko'taruvchi xorijiy investitsiyalarini jalb etish;

⁸⁸ Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учеб. пособие. / А. В. Владимирова, Н. И. Вильдяева, Е. А. Куделя, С. А. Лосевская - 2-е изд., испр. и доп. – Новочеркасск: 2015. – 344 с.

⁸⁹ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 242 bet

- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valutani olib chiqish, boshqa xalqaro konvensiyalar ijrosi bo'yicha davlat nazoratini o'rnatish ⁹⁰.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi siyosat aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi⁹¹.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotning kuchli eks-port bo'g'inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;

- milliy investitsiyalarni sug'urtalash;

- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash;

- ,, davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;

- eksport va imported litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

-ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar ⁹².

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valutani mustahkamlash va uni boshqa valutilarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori

⁹⁰ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 243 bet

⁹¹ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 243 bet

⁹² Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 243 bet

narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi ⁹³.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatidagi asosiy yo'nalishlar va tarkibiy qismlar

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo'lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo'liga ma'lum to'siqlar qo'yadi va ushbu choralar milliy manfaatlarni muhofaza qilish zaruriyati bilan tushuntiriladi ⁹⁴. Bunday choralarga mamlakat iste'mol bozorlarini himoya qilish, mamlakat ichki bandligini oshirish, yangi va istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatbardosh bo'lgan mamlakatlar ham, bunga chidamsizlari ham litsenziyalash va kvotalarni o'rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta'minlovchi talablarni o'rnatish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishi mumkin bo'lgan bir qator boshqa vositalardan keng foydalanadilar⁹⁵.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga muvofik uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartiblashga qaratilgan faoliyat tushuniladi⁹⁶.

Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblash siyosatida ikki yo'nalish o'zaro boglangan:

1) liberalizm;

⁹³ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 244 bet

⁹⁴ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 244 bet

⁹⁵ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 244 bet

⁹⁶ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 244 bet

2) proteksionizm⁹⁷.

Ichki bozorni xorijiy raqobat bosimidan muhofazalashga qaratilgan tashqi siyosat proteksionizm deyiladi. Davlat hukumatining tashqi savdoda iqtisodiy va ma'muriy to'siqlarni birgalikda pasaytirishni ko'zlovchi siyosati liberalizm deyiladi. Tashqi savdoni erkinlashtirish va proteksionizm siyosatlari bir-biriga mazmunan teskari bo'lsa-da dunyodagi har bir davlati uchun xos bo'ladi. Hozirgi vaqtda tashqi savdo-sotiqni erkinlashtirish tarafdorlari ko'paymoqda. Bu jarayon uch xil ko'rinishda amaiga oshirilmoqda:

- mamlakatlararo o'zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi mustaqil davlatlar o'rtasida;
- taritlar va savdolar Bosh bitimi (GATT), Savdo va rivojlanish bo'yicha BMTning konferensiyalari (UNCTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko'p tomonlama bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish belgisiga ko'ra davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga 1) tashqi savdo-sotiq siyosati, 2) tashqi investitsiya siyosati, 4) valuta siyosati, 5) ishchi kuchi tashqi migratsiyasi siyosati, 6) bojxona siyosati kabilar kiradi.

Tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar (ish, xizmatlar), axborotlar, intellektual faoliyat natijalarini va boshqalarni ayirboshlashni nazarda tutadi va eksport-import siyosatlari birlashib tashqi savdo siyosatini tashkil etadi. **Tashqi investitsiya siyosati** xorij investitsiyalarini mamlakatga jalb qilish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijiy mamlakatlarga olib chiqishni tartiblashga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat. **Valuta siyosati** valuta munosabatlari sohasida valuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy-tashkiliy shakl, usul hamda chora-tadbirlar yig'indisidir. **Ishchi kuchi tashqi migratsiyasi siyosati** ishchi

⁹⁷ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 244 bet

kuchining ish izlab chegaralar osha harakatlanishini tartiblaydi. **Davlatning bojxona siyosati** — mamlakat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblash usullar

Hozirda dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda real voqe`liklarni hisobga olib tashqi iqtisodiy faoliyatni tartiblash tizimidan unumli foydalanishga harakat qilinmoqda va tashqi iqtisodiy munosabatlarga kirishgan bozor subyektlari faoliyati takomillashtirib borilmoqda. Quyidagilar tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblashning asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi ⁹⁸:

-respublika milliy manfaatlariga mos keluvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini ta’minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni tashkil qilish va amalga oshirish;

-tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtirish;

-mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga yuqori samaradorlikni ta’minlash, ular faoliyatini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish. ⁹⁹

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini erkinlashtirishda umume’tirof qilingan bevosita va bilvosita usullari ishlatiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartiblashning bilvosita usullariga faoliyat ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini, ularning daromadini taqsimlashga, kelishuvlar shartlarini bajarishga ta’sir etuvchi, bojxona bojlari va tariflari, turli soliqlar, valutadan tushgan puldan ajratmalar me’yorlari, xalqaro operatsiyalarning kreditlanishi va sug‘urtalanishining foiz stavkalari hisoblanadi u ishtirokchining u yoki

⁹⁸ Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. H.P. Abulqosimov, O.Ya. Xamrayev. O`quv qo`llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 249 bet

⁹⁹ Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учеб. пособие. / А. В. Владимирова, Н. И. Вильдяева, Е. А. Куделя, С. А. Лосевская - 2-е изд., испр. и доп. – Новочеркасск: 2015. – 344 с.

bu qarorni qabul qilishda ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartiblashning bevosita usullari bilvosita usullarga qaraganda kamroq foydalaniladi. Bevosita usullar o'z mazmuni bo'yicha iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy ko'rishlarda ro'yobga chiqadi.¹⁰⁰

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartiblashning bevosita usullaridan bojxona bojlari va tariflari ko'proq ahamiyatlidir. Ularning yordamida tashqi iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan tashqi savdo tartiblanadi. Bojxona tariflarini o'zgartirish davlatning eksport va importni rag'batlantirish yoki qisqartirish maqsadlaridan kelib chiqib milliy ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Bojxona boji - bu mamlakat chegarasidan olib kirilayotgan yoki mamlakat chegarasidan olib chiqilayotgan tovar (ishlar, xizmatlar)larga solinadigan soliqning bir turidir. Amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llanadi va ularni hisoblash yo'llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi.

